

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUSTA‘LIM VA ZIRLIGI

BUXOROMUXANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Э ва ИЧАКТ” FAKULTETI

“Himoyagaruhsat ”

“ТЖБАКТ” kafedrasi mudiri

dots. A.U.Usmonov

“ ” 2016y

BITIRUVMALAKAVIYISHI
HISOB-TUSHUNTIRUV YOZUVI

Mavzu: _____

Bajardi:

4 -12 ТЖБАКТ guruhi
tolibi Каримова Д.

Raxbar:

к.ўқит Ф.Ю. Хабибов

Himoyakuni _____

DAKbayoni _____

DAKbahosi _____

DAKkotibi _____

Buxoro – 2016

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2015 yilning asosiy yakunlari va 2016 yilda O'zbekiston ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzalarida quyidagilarga to'xtalgan edilar: "Yurtimizda qabul qilingan 2011-2016-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida Myuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'ni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2015-yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, engil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, 2016-yil sanoat sohasida yuksak texnologiyalarga asoslangan va zamonaviy muhim ob'ektlar va quvvatlarni ishga tushirish, investitsiyalarni oshirish va takomillashtirish yili bo'ladi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi nordon gazlarni ajratish jarayonini avtomatlashtirishga bag'ishlangan.

Mamlakatimizni er ostidan olinayotkan gazlarning 70 % ga yaqini sanoatda yonilg'i va hom ashyo sifatida ishlatiladi, 20 % ga yaqini elektroenergiyani ishlab chiqarish uchun yonilg'i sifatida foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda tabiiy gazlar yer ostidan olingandan so'ng konlarda qayta ishlanib, ularni tovar gaz holiga keltiriladi, shu bilan birga, undan etan, propan, butan, izobutan gazlari, oltingugurt, merkaptanlar, gazokondensat, hatto motor yonilg'ilari ishlab chiqariladi.

Yer ostidagi gazlar suv bug'i bilan muvozanatli miqdorigacha to'yingan bo'ladi. Er ustiga chiqqandan so'ng termodinamik sharoitlar (temperatura, bosim) o'zgarishi sababli suv bug'lari suyuq holatiga o'tadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Gazlarni namligi deb gazni tarkibidagi namlikni massa miqdorini (kg) quruq gazni massa miqdoriga nisbatini tushunamiz.

Absolyut namlik deb nam gazning tarkibidagi suv bug'ining partsial bosimining o'lchamini tushunamiz, yoki 1 m^3 nam gazning tarkibidagi suv bug'ining miqdorini (gramm) tushunamiz.

Nam gazning temperaturasi $+16,5^\circ\text{C}$ ga teng bo'lganda suv bug'ining partsial bosimini simob ustuniga teng bo'lgan o'lchami 1 m^3 gazning tarkibidagi suv bug'i massasining gramm miqdoridagi o'lchamiga tengdir.

Gazning nisbiy namligi deb gazning tarkibidagi suv bug'ining massasini (% yoki qismi), shu temperaturadagi gazning tarkibida hosil bo'luvchi to'yingan suv bug'ining massasiga nisbatini aytamiz.

Nam gazning tarkibida suv tomchilarini ajralib chiqish temperaturasini shudring hosil bo'lish tochkasi deymiz.

Namsizlantirishning fizikaviy asoslari. Tabiiy va neft' gazlarini namsizlantirish absorbtsiya yoki adsorbtsiya usullari bilan bajariladi. Xar bir usulning o'ziga hos afzalligi va kamchiligi bor.

Absorbtsiya usulining kimyoviy va fizikaviy turlari bor. Fizikaviy absorbtsiyada jarayon suv buglarining gaz fazasidagi partsial bosimining o'lchamiga tenglashguncha davom etadi.

Absorbent sifatida asosan dietilenglikol' va trietilenglikollar ishlatiladi. Jarayonning samaradorligi temperaturaga va absorbentning konsentratsiyasiga bog'liq.

Absorbentlar tuyingandan keyin ularning tarkibidagi suvni xaydash uchun DEGni 164°C va TEGni 206°C gacha qizdiriladi. Bu jarayonda absorbentni tarkibida 2-3 % suv qoladi. Suvni qolgan qismini ham haydash uchun desorberda 400-600 mm simob ustunigacha vakuum hozir qilish kerak. Vakuumni bir necha usul bilan olinadi. Bundan tashqari suv qoldig'ini azeotrop usul bilan xaydash mumkin. Buning uchun DEG ga benzol, toluol, ksilollar, geptan, izooktan va shularga o'xshash uglevodorodlardan birini berilsa, ular suv qoldig'i bilan azeotrop hosil qilib olib chiqib ketadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

I. Texnologik jarayon (nomi) va uni avtomatlashtirish asoslari

1.1. Sanoatda qo'llaniladigan bug' qozonlarida yonish mahsulotlari – gazlar issiqlik tashuvchi vazifasini bajaradi. Ularning issiqligi energetik maqsadlarda emas, balki, texnologik maqsadlarda ishlatiladi.

XOM-AShYo MODDALAR VA TAYYor MAXSULOT TAVSIFI

12-15-qurilmalar mahsuloti tozalangan tabiiy gaz bo'lib, uning sifati quritilgandan keyin O'zDSt 948:1999 «Magistral gaz qurilmalariga beriladigan yonuvchi tabiiy gazlar. Texnik shartlar № 1, 2 o'zgartirish bilan». O'zDSt 948:1999 talablari 1 -jadvalda berilgan.

1-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	Me'yor		Sinov usullari
		Yozda	Qishda	
1	2	3	4	5
1.	Quyi yonish issiqligi, MJ/m ³ (ksa1/t ³) 20°S va 101,325 kRa da	Me'yorlanmaydi Aniqlanishi shart		GOST 27193-86 GOST 22667-82 № 1 o'zgarish bilan GOST 10062-75 № 1 o'zgarish bilan
2.	Vobbe sonini (yuqori) ko'rsatgichlar sohasi, MJ/m (ksa1/sh)	-“-		GOST 22667-82 №1 o'zgarish bilan
3.	Vodorod sulfidning mikdori, g/mJ dan ko'p emas	0,007	0,007	GOST 22387.2-97
4.	Merkaptanli oltingugurt og'irlik miqdori, g/m3 dan ko'p emas	0,016	0,016	GOST 22387.2-97
5.	Kislorodning hajm. miqdori, % dan ko'p emas	0,5	0,5	GOST2378 1-87 № 1 o'zgarish bilan
6.	Mexanik aralashmalar miqdori, g/m ³ dan ko'p emas	0,001	0,001	GOST 22387.4-77 № 1 o'zgarish bilan
7.	Namlilik bo'yicha shudring nuqtasi harorati, °S dan yuqori emas uglevodorodlar bo'yicha	0 0	-5 0	GOST 20060-83 GOST 20061-84
8.	Gaz quvuridagi va kirishdagi gazning harorati	Loyiha asosida belgilanadi		

Tozalangan tabiiy gaz normal sharoitda parafin qatori uglevodorodlar, ya'ni metan, etan, propan, butan kabi gazlar aralashmasidan iborat.

Shuningdek, ushbu gazda azot, karbonat angidrid va qoldiq suv bug'i ham bo'ladi. Tozalangan tabiiy gaz toksikologik ko'rsatgichlarga ko'ra GOST 12.1.007-76 ga asosan havflilik sinfi 4 bo'lgan moddalarga kiradi va inson organizmiga toksikologik

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

ta'sir etmaydi, biroq atmosfera havosidagi kislorod miqdori 15-16%gacha kamayganda bo'g'ilishga olib keladi. Havo tarkibida tabiiy gaz miqdori 33% bo'lganda, kislorod yetishmasligi sababli bo'g'ilish alomatlari kuzatiladi.

Gaz miqdori 75% bo'lganda - o'lim yuz beradi. Ish joyidagi ruhsat etilgan miqdor 300 mg/m³, tozalangan tabiiy gazning asosiy komponenti - metandir.

Tozalangan gaz tarkibidagi komponentlarning o'rtacha hajm. foizi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

C ₁	S ₂	S ₃	iC ₄	nS ₄	iC ₅	nS ₅	S ₆	S ₇	S ₈	N ₂	SO ₂	H ₂ S
92,99	3,49	0,83	0,14	0,23	0,07	0,08	0,09	0,05	0,03	0,47	1,53	0,00

Tabiiy gazlarning yong'in portlash havfsizligi, havfsizlik talablari va ularni tashish, qabullari «Magistral gaz quvurlariga beriladigan yonuvchi tabiiy gazlar. Texnik shartlar». №1,2 o'zgartirishlar bilan O'zDSt 948:1999 da berilgan.

Xom ashyo va materiallar tavsifi.

Xom ashyo tavsifi.

12-15-oltingugurtdan tozalash qurilmalari uchun xom ashyo sifatida «Muborakneftegaz» UShK qazilma konlaridan olinayotgan yuqori oltingugurtli va kam oltingugurtli tabiiy gaz hisoblanadi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodiga (GQIZ) berilayotgan kam oltingugurtli tabiiy gaz xom ashyosining sifati «O'zgeoburneftgazkazibchiqarish» Aksionerlik Jamiyati (AJ) «Muborakneftegaz» GQIB (gazni qayta ishlash Boshqarmasi)ning Pamuk, Kultak, Zevarda, Alan, Ko'kdumaloq konlaridan kam oltingugurtli yonuvchi tabiiy gazlar KSt 05786726-04:2003 talablariga to'g'ri kelishi shart. Texnik talablar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ko'rsatgichlar nomi	KS 05786726-04:2003 bo'yicha kiymatlar		Nazorat shartligi haqida kayd
	Kultak, Alan, Ko'kdumalok	Zevarda, Pamuk	
1. Namlik bo'yicha shudring nuqtasi harorati, °Sdan yukori emas 01.04 dan 31.10 gacha 01.11 dan 31.03 gacha	0 -5	8 8	Aniklanishi shart
2. Uglevodorodlar bo'yicha shudring nuqtasi harorati, °S dan yuqori emas 01.04 dan 31.10 gacha 01.11 dan 30.03 gacha	0 0	15 15	Aniqlanishi shart
3. Vodorod sulfidning, hajm. % dan ko'p emas	0,12	0,12	Anikdanishi shart
4. Merkaptanli oltingugurt massasi, g/m ³ dan ko'p emas	0,036	0,036	Aniklanishi shart

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

5. Mexanik aralashmalar massasi, g/m ³ dan ko'p emas	0,003	0,003	Aniklanishi shart
6. Kislorodning hajm. qismi, hajm. % dan ko'p emas	1,0	1,0	-

Izoh: Zevarda, Pamuk konlari bo'yicha namlik va uglevodorodning shudring nuqtasi harorati ko'rsatgichlari «Zevarda», «Pamuk»da sovuq stansiyasining ishga tushirilishigacha haqiqiy hisoblanadi.

Kam oltingugurtli tabiiy gaz quyidagi o'rtacha tarkibdan iborat.

4-jadval

№	Konlar nomi	Tarkib, hajm. %							
		H ₂ S	SO ₂	SN ₂	S ₂ N ₆	S ₃ N ₈	C ₄ H ₁₀	S ₅ N _{12+v}	N _{2+p}
1	Zevarda	0,08	3,30	90,61	3,57	0,63	0,23	1,20	0,33
2	Alan	0,08	3,57	90,83	3,65	0,74	0,33	0,25	0,55
3	Kokdumalok	0,08	3,35	89,21	3,84	0,94	0,25	1,72	0,43
4	Pamuk	0,07	3,75	90,51	3,64	0,82	0,23	0,28	0,53
5	Kultak	0,08	3,98	90,23	3,56	0,82	0,34	0,37	0,45

Yuqori oltingugurtli gazlar sifatiga talab «Muborak GQIZ» UShKga beriladigan yuqori oltingugurtli yonuvchi tabiiy gazlar KSt 05786726-05:2005 bo'yicha qat'iy belgilab qo'yilgan. Sifat ko'rsatgichlari 5-jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatgichlar nomi	KSt 05786726-05:2005 bo'yicha qiymatlar	Nazorat shartligi haqida qayd
1. Bosim 5,5 MRa dagi gaz quvuriga kirayotgan gazning harorati, °S ko'p emas	55	-
2. Kislorodning hajm. qismi, % dan ko'p emas	1.0	-
3. Mexanik aralashmalar massasi, g/m ³ dan ko'p emas	0,003	Aniqlanishi shart

O'rta-buloq, Xauzak-Dengizko'1 konlaridagi yuqori oltingugurtli tabiiy gaz quyidagicha o'rtacha tarkibga ega.

6-jadval

№	Konlar nomi	Miqdor, hajm. %							
		H ₂ S	SO ₂	SN ₂	S ₂ N ₆	S ₃ N ₈	C ₄ H ₁₀	S ₅ N _{12+v}	N _{2+p}
1	Urta - Bulak	5,00	4,70	86,32	1,80	0,27	0,15	0,36	1,40
2	Xauzak-Dengizko'1	4,49	4,27	88,63	1,40	0,26	0,11	0,33	0,51

Xom ashyo gazi tarkibida merkaptanlar RSh ham uchrab turadi va shu sababli yuqori oltingugurtli gazda uning konsentratsiyasi 100mg/m³ ga ham yetadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Tabiiy xom ashyo gazi rangsiz, yonuvchan, oltingugurt birikmalari bo'lganligi sababli zaharli, portlash havflidir.

Oraliq mahsulotlar. Ekspanzer gazi.

Ekspanzer Ye-6 da (12-blok uchun - Ye-1) bosimni 0,6 MRa gacha tushirganda MDEAning to'yingan eritmasidan hosil bo'lgan shabodalash (nuratish) gaz tarkibi asosan MDEAga yuqori bosimda absorbsiyalangan yengil uglevodorodlardan iborat bo'ladi.

Loyiha bo'yicha:

- kam oltingugurtli gazni MDEA bilan tozalashdagi ekspanzer gazi quyidagi tarkibga ega:

7-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	O'lchov birligi	Loyiha bo'yicha me'yor
1.	Vodorod sulfid miqdori	hajm. %	0,03 gacha
2.	Karbonat angidrid miqdori	hajm. %	0,14 gacha
3.	Suv bug'i miqdori	hajm. %	1,00 gacha
4.	Uglevodorodlar miqdori	hajm. %	99,0 gacha

- yuqori oltingugurtli gazni MDEA bilan tozalashdagi ekspanzer gaz quyidagi tarkibga ega:

8-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	O'lchov birligi	Loyiha bo'yicha me'yor
1.	Vodorod sulfid miqdori	hajm. %	4,0 gacha
2.	Karbonat angidrid miqdori	hajm. %	14,1 gacha
3.	Suv bug'i miqdori	hajm. %	1,00 gacha
4.	Uglevodorodlar miqdori	hajm. %	80,9 gacha

Oltingugurt ishlab chiqarish uchun nordon gaz

Kam oltingugurtli gazni qayta ishlashdagi to'yingan eritmani desorbsiyalash jarayonida ajralib chiqqan nordon gaz quyidagi ko'rsatgichlarga ega:

9-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	Loyiha bo'yicha me'yor	Nazorat shartligi haqida qayd
1.	Vodorod sulfid mikdori, hajm. % dan kam emas	3,0-3,2	Talab bo'yicha aniklanadi

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

2.	Karbonad angidridning miqdori, hajm. % dan ko'p emas	90,8-91,8	Talab bo'yicha aniqlanadi
3.	Uglevodorodlar miqdori, hajm. % dan ko'p emas	1,0	Talab bo'yicha aniqlanadi
4.	Namlilik miqdori, hajm. % dan ko'p emas	4,0	Talab bo'yicha aniqlanadi

Klaus jarayoni uchun xom ashyo bo'lgan yuqori oltingugurtli gazni qayta ishlashda ajralib chiqqan nordon gaz quyidagi talablarga to'g'ri kelishi kerak:

10-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	Loyiha bo'yicha me'yor	Nazorat shartligi haqida qayd
1.	Vodorod sulfid miqdori, hajm. % dan kam emas	53,0	Aniqlanishi shart
2.	Karbonad angidridning miqdori, hajm. % dan ko'p emas	41,0	Aniqlanishi shart
3.	Uglevodorodlar miqdori, hajm. % dan ko'p emas	1,00	Aniqlanishi shart
4.	Namlilik miqdori, hajm. % dan ko'p emas	4,50	Aniqlanishi shart

Kam oltingugurtli va yuqori oltingugurtli xom ashyo gazidan olingan nordon gazlar o'ta zaharli, kuchli yemiruvchi, portlash havfli gazdir.


Suv bug'i kondensati

Oltingugurtdan tozalash kurilmasining) desorbsiyalash qismidan 95 °S bo'lgan suv bug'i kondensati qaytib tushib, uning sifati issiqlik yetkazuvchi - OAJ «MTES» bilan tuziladigan har yillik shartnoma orqali aniqlanadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Reagentlar
Texnik metildietanolamin (MDEA) TSh 2423-005-11159873-2000

MDEA, tabiiy gaz tarkibidagi nordon komponentlardan tozalash uchun ishlatiladi. Molekulyar og'irligi - 119,2. MDEA formulasi - $C_5H_{11}N(OH)_2$ yoki tuzilishi bo'yicha quyidagi ko'rinishga ega



MDEA GOST 12.1007-76 inson organizmiga ta'siri bo'yicha havflilik sinfi 3 bo'lgan yog'simon suyuqlikdir. O'ziga xos hidli, rangi och sariqdan to'q sariqqacha o'zgaruvchan bo'lib, yemirish aktivligi va ko'pik hosil qiluvchanlik xossalari bo'yicha aminlardan biri dietanolamin (DEA) bilan aynan bir xildir. Havo bilan portlash havfli bo'lgan aralashmalar hosil qilmaydi.

11-jadval.

№	Ko'rsatgichlar nomi	TSh. bo'yicha qiymat		Nazorat shartligi haqida qayd
		Oliy sort	1-sort	
1.	Tashqi ko'rinishi	Mexnik aralashmalarsiz tinik suyuqlik		Ko'z bilan
2.	Zichlik, 20 °S xaroratda g/sm ³	1,036-1,042	1,036-1,042	Talab bo'yicha aniqlanadi
3.	Metildietanolaminning og'irlik kismi. % dan kam emas	99,0	98,5	Aniqlanishi shart
4.	Aralashmalar miqdori, % dan ko'p emas, shu jumladan: suv miqdori, % dan ko'p emas	1,0 0,2	1,5	Talab bo'yicha aniqlanadi

Aktivlangan ko'mir

12-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	GOST bo'yicha me'yor	Nazorat shartligi haqida qayd
Aktivlangan ko'mir AG-3 GOST 20464			
1.	Fraksiya tarkibi, %	Elak o'lchamlarida qolgan qoldiq miqdori: №36 -0,4 №28-3,0 №15-86,0 №10-10,0	-
2.	Zichligi, g/dm ³	400-550	-
Aktivlangan ko'mir DX-30			
1	G'ovaklik hajmi, sm ³ /g	0,8	-

Bajardi	Karimova D.			<i>Hisob tushuntiruv yozuvi</i>	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

2	Fraksiya tarkibi, %	96	-
3	Granula diametri, Mm	2,0-3,0	-
4	Ishqalanish bo'yicha mustahkamligi, %	96,6	-
5	Kul miqdori, %	5	-
6	RN	7	-
7	Metilen ko'kini adsorbsiyalash bo'yicha ko'rsatgichi, ml/g	180	-
8	Zichligi, kg/m ³	592	-

Ko'pik so'ndirgich

13-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	TSh. bo'yicha qiymat	
IFXANGAZ-1 TU 6-05-1.944			
1.	Tashqi ko'rinishi	Sariq rangdan jigarranggacha suyuqlik o'zgaradi	Ko'z bilan kuzatiladi
2.	Akrilo nitril kislotaning og'irlik qismi, %	Mavjud emas	-
3.	Ikkilamchi va uchlamchi amin asoslari, ko'p emas, 0,1n HC1 10ch/ g	35	
4	Uchlamchi amin asoslari, kam emas, 0,1 nNS1,ch/g	24	-
5	Sindirish ko'rsatkichi, 20 °S da, Pd	1,448-1,451	-
6	Muzlash temperaturasi, ko'p emas, °S	-35	-
DANOXAF -200			
1	Tashqi ko'rinishi	Suyuqlik	Ko'z bilan kuzatiladi
2	Zichligi (20 °S da), g/sm	0,818-0,823	-
3	Alangalanish harorati, °S	63	-
4	Qaynash harorati, °S	>193	-
5	Muzlash harorati, °S	<30	-
6	Eruvchanligi (20 S da)	Neftda, izopropanolda, geksenda eriydi	

Ko'pik so'ndirgich «IFXANGAZ-1» silikon asosida olingan Rodorsil, propanol kabi ko'pikso'ndirgichlardan farq qilib, apparatlar devorida, taretkalarda cho'kmalar hosil qilmasligi, sistemada to'planib qolmasligi, aminning suvli eritmalari bilan yaxshi emulsiyalar hosil qilishi va shuningdek zanglashga qarshi himoyalovchi xossaga ega.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

IFXANGAZ-1 yonuvchi, portlashga havfsiz, teriga tez ta'sir etuvchi xossaga ega bo'lib, organizmda to'planuvchidir. Ish joyi havosidagi ruhsat berilgan miqdor (PDK) 2mg/m³.

Ko'pikso'ndirgich «DANOX AG'-200» - silikon birikmalaridir. Oq rangli suyuqlik. Ishlatish jarayonida va saqlashda oksidlovchilardan yiroqroq tutish kerak. Saqlash usuli - berk yopilgan konteynerda. Organik erituvchilarda oson eriydi. Qo'llash vaqtida teriga, ko'zga tegizmaslikka, bug'laridan nafas olmaslikka harakat qilish kerak. Yutish yo'li tufayli u organizmga tushganda o'pkani shikastlantirishi mumkin.


Gidrat hosil qilishga qarshi ingibitor - dietilenglikol (DEG) GOST 10136-77

14-jadval

№	Ko'rsatgichlar nomi	GOST bo'yicha me'yor	Nazorat shartligi haqida qayd
1	Zichligi (20 °S da), g/dm ³	1,116-1,117	Talab bo'yicha anikdanadi
2	Rangi, Xazena birligida, ko'p emas	10	Ko'z bilan kuzatiladi
3	Organik aralashmalar og'irlik qismi, % da ko'p emas, shu jumlada etilenglikol, % dan ko'p emas	0,1 0,15	-
4	Dietilenglikol og'irlik qismi, % dan kam emas	99,5	Aniqlanish shart
5	Namlik miqdori, % dan ko'p emas	0,05	-
6	Sirka kislota hisobidagi kislota miqdori, % dan ko'p emas	0,005	-
7	Sovunlash soni, mg KON 1g mahsulotga, ko'p emas	0,1	-
8	Haydash temperaturasi 101,3 kRa (760mm. rt. st.) bosimida		-
9	Haydashning boshlanishi, °S dan kam emas	244	-
10	Haydashning tugashi, °S dan ko'p emas	249	-

Dietilenglikol yonuvchan rangsiz yoki och sariq rangli kimyoviy gigroskopik suyuqlik bo'lib, hidsiz va o'ziga xos shirin ta'mga ega. DEG kuchsiz zaharlilik xossasiga ega. Xona haroratida uchuvchanligi kam bo'lganligi sababli uning bug'laridan kuchli zaharlanish kuzatilmaydi. DEG og'iz orqali organizmga tushsa havf tug'diradi, ya'ni asosan markaziy asab sistemasiga va buyrakka ta'sir qiladi. Ish joyi havosidagi ruhsat etilgan miqdor (PDK) 200mg/m³.

Bajardi	Karimova D.			<i>Hisob tushuntiruv yozuvi</i>	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	




3-rasm. Nasadkali absorber qurilmalari.

Bajardi	Karimova D.		
Raxbar	Xabibov F.Yu.		
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo Sana

Hisob tushuntiruv yozuvi

Var



Bajardi	Karimova D.				Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.					
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana		

1.2. Nordon gazlarni kayta ishlash va uning sxemasi tahlili

Umumiy texnologik jarayon tavsifi

Jarayonning kimeviy taxlili

Gazni vodorod sulfiddan tozalash siklik absorbsiya usulida olib borilib, bunda metildietanolaminning 30-40%li suvli eritmalari vodorod sulfidni yutuvchi sifatida ishlatiladi.

MDEAning shu maqsadda keng ishlatiladigan alkanolaminlar, monoetanolamin va deetanolaminga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:

– vodorod sulfidni CO_2 aralashmasidan ajratishda yuqori selektivlikka (tanlab ajratishga) ega.

– sistemada aylanib yuruvchi eritma kichik hajmda bo‘ladi.


– eritma regeneratsiyasi uchun suv bug‘ining solishtirma sarfi kam.

– uglerodli po‘latga eritma kam ta‘sir etadi, ya‘ni zanglash xususiyati kam.


– uncha yuqori bo‘lmagan ko‘piklanishga moyillik.

Siklik jarayon mohiyati shundan iboratki, bunda gaz MDEA eritmasi bilan yuboriladi, so‘ngra eritma regeneratsiya qilinadi va yana u yuvish bosqichiga (absorbsiyaga) qaytariladi.


MDEAga vodorod sulfidning va karbonat angidridning absorbsiyasi quyidagi kimyoviy reaksiyalar bilan uzatiladi.



2-tenglama karbonat angidridning MDEA bilan o‘zaro ta‘sirining umumiy reaksiyasi bo‘lib, u bikarbonat hosil bo‘lishi bosqichidan:



neytrallash bosqichidan iborat:



1-reaksiya amaliy jihatdan bir zumda yuz beradi.

HCO_3^- ning hosil bo‘lishi juda sekin yuz beradigan reaksiya bo‘lib, u 2-reaksiya bo‘yicha CO_2 ning MDEA bilan bog‘lanish tezligi yig‘indisini nazorat qiladi.

Ma‘lumki, gaz aralashma komponentlarining suyuqliklarga absorbsiya tezligi shu komponentlarning ikki faza – gaz va suyuqlik aralashmasi tezligi bilan aniqlanadi.

Bunda, agar H_2S va SO_2 ning gaz fazasidagi almashinish tezligi o‘zaro yaqin bo‘lsa, ularning suyuqlikdagi almashinish tezligi ko‘proq 1- va 2-kimyoviy reaksiyalarda boradigan absorbsiya tezligi bilan aniqlanadi. Shu sababli 1- va 2-reaksiyalar tezligi juda katta bo‘lishiga qaramasdan H_2S va SO_2 ning MDEA eritma bilan umumiy absorbsiya tezligi unchalik darajada bo‘lmasa ham, H_2S ning tezroq yutilishi bilan farqlanadi.

Shu tariqa, ushbu holatda gaz tarkibida SO_2 qatnashgan gazdan H_2S ni tanlab ajratishga erishish mumkin. Bunda absorber shunday o‘lchamlarga ega bo‘lishi lozimki,

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O‘zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

ya'ni gazning unda bo'lish vaqtini ta'minlay olishi, amaliy jihatdan umumiy vodorod sulfidning yutishni ta'minlay olishi, karbonat angidridning katta miqdordagisini ajratib olishga mo'ljallanmagan bo'lishi kerak. Tanlab yutuvchi sifatida MDEA bug'ining afzalligi ayniqsa, $H_2S: SO_2$ nisbati <1 bo'lgan kam oltingugurtli gazlarni tozalashda kuzatiladi.

Uglevodorod gazlarini quritish, gaz quvurlari magistrali bo'ylab tashiladigan tabiiy gazni tayyorlash jarayonidagi asosiy bo'g'implardan hisoblanadi.

Quritish darajasi gaz sifatiga qo'yiladigan talablar va gazni keyingi qayta ishlash texnologik jarayonlari bilan aniqlanadi. Uglevodorod kondensati va suvni ajratish uchun zavodda past haroratli ajratish (separatsiya) jarayoni qo'llaniladi. Gidratlar hosil bo'lishiga qarshi kurashish uchun sovugan gazga gidrat hosil bo'lishiga qarshi ingibitor – dietilenglikol sepiladi.

Oltingugurtdan tozalash qurilma ishlash prinsipi

Qurilmada loyihaga asosan tabiiy gazni tozalash ishlash prinsipi ikki parallel ishlovchi tizimlardan iborat. Bundan tashqari, ishlash prinsipi bo'yicha tizimlarning ketma-ket tartibda ishlashidan, yuqori oltingugurtli gazni tozalash mumkinligi ham nazarda tutilgan. Ikkala tizimdagi desorberlarning ishdan chiqishida blokning texnologik tizimini quyidagi variantda qayta qurish haqida qaror qilingan. Gaz bo'yicha ikkita tizim, eritma bo'yicha bitta tizim. Yangi qabul qilingan ishlash prinsipida xom ashyo gazi blokka ikki oqim bo'yicha parallel ishlovchi ikkita ajratgich 10S-1, ikkita absorber 10K-1/1, 2 orqali qabul qilinadi. Tozalangan gazning chiqib ketishi tozalangan gaz umumiy ajratgich 10S-2 orqali amalga oshiriladi. Ikkala absorber 10K-1/1, 2 dan to'yingan eritma umumiy ekspander Ye-1 ga kelib tushadi va bitta oqim bilan desorber 10K-2 ga regeneratsiya qilishga beriladi. Bundan keyin bitta tizim bo'yicha tabiiy gazni tozalash texnologik ishlash prinsipi bayoni keltirilgan.

MGQIZda texnologik qurilmalarni raqamlash quyidagicha bo'ladi:

– oltingugurt tozalash qurilmasi – 10;

Past haroratli ajratish (separatsiya) (PXA) – 20;

DEG regeneratsiya qurilmasi – 30;

Nordon komponentlardan tozalash uchun, tabiiy gaz 4,8 – 5,5 MRa bosim ostida va 30-40 °S da tik holatdagi ajratgich 10S-1/1 ga kelib tushadi va gaz harorati tezligi, yo'nalishi o'zgarishi hisobiga suv tomchilari va mexanik aralashmalardan ajratiladi.

Ajratgich qurilmasi suyuq fazani suv va uglevodorod kondensatsiyasiga ajratishni amalga oshiradi. Uglevodorod kondensati ajratgichdan 1-sexdagi kondensatni shabodalash qurilmasiga kelib tushadi. Xom ashyo gazining ajratgichga kirishdagi bosimi o'rnatilgan manometr poz.202, shuningdek MP-P asbobi bilan ulanib, operatorlar xonasi shchitida ikkilamchi asbob poz.201 orqali qayd qilinadi.

Gaz harorati termometr poz.125 bilan o'lchanadi.

10S-1/1 dagi uglevodorod kondensati sathi, klapani uglevodorod kondensati chiqib ketishi yo'liga o'rnatilgan NO'A operatorlar xonasi shchitidagi ikkilamchi asbob poz.403 bilan boshqarilib turiladi. Gaz sarfini o'lchash diafragma poz.301 orqali amalga oshirilib, operatorlar xonasi shchitida joylashgan asbobga ko'rsatkichlar uzatiladi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

10S-1/1 dagi bosim farqi DSP-3 da o'lchanib, undan pnevmatik habar ikkilamchi asbob poz.203 ga kelib tushadi.

Xom ashyo gazi ajratgichning tepa qismidan chiqib 10K-1/1 absorberdagi likopchalarga kelib tushadi.

Absorberning o'rta qismiga keladigan va setkali tarelkadan setkasiz (gluxoy) tarelkaga olib tushadigan MDEAning 30-40 % li erimasi bilan gazni o'zaro kontakti natijasida absorbsiya jarayoni amalga oshadi. Gaz bilan kontaktga kirishib eritma vodorod sulfid va qisman karbonat angidrid bilan to'yingadi. Gazning ekspanzeriga o'tib ketishini qaytarish uchun absorberda eritma sathi bir xil ushlab turiladi. Absorberga kirayotgan xom ashyo gazi harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.121 bilan qayd qilinadi. Absorberdagi bosim farqi asbob DSP-3 bilan o'lchanib berilgan xabar operatorlar xonasi shchitidagi poz.204 ga kiritilgan. Absorber 10K-1/1 dagi to'yingan amin eritmasi sathi sath o'lchagichda o'lchanib undan pnevmatik habar rostlagich orqali klapan rostlagichga keladi. Sath operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.401 bilan rostlanadi. Absorberda tozalangan gaz, olib ketilayotgan eritma tomchilaridan ajratish uchun, ajratgich 10S-2 ning yuqori qismiga kiritiladi.

Tozalangan gazdagi vodorod sulfidni o'lchash gazoanalizator yordamida amalga oshiriladi. Vodorod sulfid miqdori $7,0 \text{ mg/m}^3$ dan yuqori bo'lganda xom ashyo gazini tozalashga berishni to'xtatish ajratgich bloki maydonida o'rnatilgan ajratgich klapan poz.301 ni yopish orqali amalga oshiriladi.

Ajratgichlardagi suyuqliklarning eng pastki sath holatini poz.405 tovushli va yorug'lik xabarlarini bilan aniqlash nazarda tutilgan. Ajratgichlardagi sath operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.405 bilan qayd qilinadi.

Vodorod sulfid va karbonat angidrid bilan to'yingan amin eritmasi absorberdan sathni nazorat qilgan holda, ya'ni issiqlikalmaztirgichlar 10T-1/1, 1, 2, 3 dan keyin o'rnatilgan klapan rostlagich bilan ushlab turgan holda ekspanzer 10E-1 ga kiradi.

Sathni qayd qilish operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.402 bilan bajariladi. Absorberdagi eritmaning eng past sathi absorberdan chiqish yo'lida o'rnatilgan uzgich klapan poz.401 ni yopish bilan eritmani uzish, shuningdek tozalashga kirayotgan gaz uzgich poz.301 ni yopish bilan gazni uzish orqali bajarish ko'zda tutilgan. Eng pastki sathlar holatini. poz.410 tovushli va yorug'lik habarchilari bilan aniqlash ko'zda tutilgan. Ekspanzerda gaz bosimini asbob poz.213 bilan rostlab, undan berilgan pnevmatik xabar rostlagich orqali klapan rostlagich poz.213 ga keladi. Ekspanzerdagi harorat termometr bilan aniqlanib, operatorlar xonasida asbob poz.121 bilan o'lchanadi va qayd qilinadi. Ekspanzerda bosimni 5,4 dan 0,6 MRa ga keskin tushirish hisobiga to'yingan eritmada qisman gazdan tozalash, ya'ni eritmada gazlarning ajralishi ro'y beradi. Shamollatish gazlari yuqori bosim ostida absorbsion jarayonida erishi o'z o'rniga ega bo'lib, asosan bular yengil uglevodorodlar, shuningdek, N_2S va SO_2 bo'lib, past bosimli mash'alga borib tushadi.

To'yingan amin eritmasi ekspanzerdan issiqlikalmaztirgichlar 10T-1/1, 2, 3 ga kelib tushadi va 3 ta issiqlikalmaztirgichlar quvurlari ichidan ketma-ket o'tib, issiqlikalmaztirgichlar quvurlari orasidan o'tayotgan regeneratsiya qilingan MDEAning qaynoq eritmasi bilan qizdiriladi. 105-110 °S gacha qizdirilgan to'yingan amin eritmasi desorber 10K-2 ning o'rta qismiga kelib tushadi. Desorbsiya jarayoni

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

desorberdagi S-shaklidagi likopchalarda boradi. Joydagi haroratni o'lchash simobli termometr va operatorlar xonasidagi asbob poz.102 bilan bajariladi. To'yingan eritmaga yutilgan nordon gazlar ajralib chiqishi tik bug'latgichlar 10I-1/1, 2 ga berilayotgan suv bug'ining kondensatsiyalash issiqligi hisobiga amalga oshadi. Suv bug'i 0,5 MRa bosim ostida bug'latgichning g'uvurlari oralig'iga kiradi. Suv bug'i kondensati bug'latgichdan bug' kondensat yig'gichga 10E-8 kelib tushib, u yerdagi doimiy sathi klapan rostlagichlar bilan ushlab turiladi. Sathni qayd qilish va rostlash operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.408 bilan bajariladi. Suv bug'i kondensati shundan keyin umumzavod suv bug'i kondensati tarmog'iga kelib tushadi. Sig'imdagi suv bug'i kondensatining bosimi o'sha joydagi texnik manometr bilan o'lchanadi. Desorber 10K-2 dan regeneratsiya qilingan amin eritmasi issiqlikalmashtirgichlar 10T-1/1, 2, 3 ga kelib tushgach, qarama-qarshi oqayotgan to'yingan eritmaga issiqligini berib soviydi va shundan keyin havo bilan sovutish uskunasiga tushadi.

Havo bilan sovutgich 10XV-1/1 apparatining eritma chiqish tizimida desorberdagi eritma sathini nazorat qilish uchun va suyuqlikning eng pastki sathi poz.406 da habar beradigan rostlash klapani poz.406 o'rnatilgan. Desorberdagi sathni rostlash va qayd qilish operatorlar xonasi shchitidan bajariladi.

Desorber 10K-2 dagi bosimni rostlash nordon gaz ajratgichi 10S-3 ning nordon gaz chiqish tizimida o'rnatilgan klapan bilan amalga oshiriladi. Bosimni qayd qilish va rostlash asbob poz.217 bilan bajariladi.

Desorber 10K-2 dagi quyi qismi harorati o'sha joydagi simobli termometr bilan o'lchanadi va operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.102 bilan o'lchanib qayd qilinadi.

Regeneratsiya qilingan MDEA eritmasining issiqlikalmashtirgichlar 10T-1/1, 2, 3 da 122-125 °S dan 85 °S gacha, havo bilan sovutish apparatida 85 °S dan 60 °S gacha sovutish amalga oshiriladi. Shunday haroratdagi eritma regeneratsiyali eritma sig'imi 10E-2/1 ga kelib tushadi.

Issiqlikalmashtirgichlar 10T-1/1, 2, 3 dan chiqayotgan regeneratsiya suyuqliklari harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.102 bilan qayd qilinadi va o'sha joydagi simobli termometr poz.108 bilan o'lchanadi.

Havo bilan sovutgich 10XV-1/1 apparatidan chiqayotgan regeneratsiya suyuqligi harorati o'sha joydagi simobli termometr bilan o'lchanadi va operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.102 bilan o'lchanadi, qayd qilinadi. 10E-2/1 yig'gichdagi MDEA eritma sathi operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.410 bilan qayd qilinadi. Yig'gichdagi eritmaning eng pastki holati sathini tovushli va yorug'lik xabarlar bilan aniqlash ko'zda tutilgan.

Suyuqlik sathi past holatda bo'lganda sirkulyatsiya nasosi 10N-1 to'xtatiladi.

Absorber 10K-1/1 ga berilayotgan eritma miqdori minimal holatga tushganda uzgich klapan poz.301ni yopish orqali ogohlantiruvchi xabar beriladi. Tozalashga kirayotgan xom ashyo gazi uziladi. 10E-2/1 yig'gichdan MDEAning regeneratsiya qilingan eritmasi sirkulyatsiya nasosi 10N-1ga kelib tushadi va shundan keyin suvli sovutgich 10X-1/1da harorati 40-45 °S gacha sovib, absorber 10K-1/1ning o'rta qismidagi 12-tarelkaga beriladi. 10X-1/1 dan chiqayotgan eritma harorati operatorlar xonasi shchitida asbob poz.121 bilan qayd qilinadi. Absorber 10K-1/1 ga berilayotgan

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

eritma miqdori diafragma va difmanometrda o'lganib, operatorlar xonasi shchitida asbob poz.302 bilan qayd qilinadi. Shunday qilib, eritmaning aylanib turishi qaytarilib turadi.

Eritmani absobsiyaga ikkita oqim bo'yicha berish imkoniyati mavjud. Gazni chuqur tozalash uchun kam miqdorda, ya'ni umumiy eritma hajmining 25 %ini sovitgich 10X-1/1 dan keyin 40-45⁰S gacha haroratda absorberning yuqorigi tarelkalariga beriladi. Regeneratsiyali eritma sig'imidan keyin ikkinchi oqim sovitilmasdan absorber 10K-1/1ning o'rta qismiga kelib tushadi.

Bug'-gaz aralashmasi (nordon gaz va oz miqdorda amin bo'lgan suv bug'i) 110-115⁰S haroratda desorber 10K-2dan chiqib, 60-65⁰S gacha sovish bilan birgalikda suv bug'ining ham kondensatsiyalanishi uchun havo bilan sovutgich 10XV-2/1 apparatiga kelib tushadi.

Minora 10K-2ning yuqori qismidagi harorat termopara bilan o'lganib, ikkilamchi asbob poz.103 bilan qayd qilinadi va rostlagich, ya'ni bug'latgich 10I-1/1, 2 larga beriladigan bug' yo'liga o'rnatilgan rostlagich klapani poz.103 bilan rostlanadi. Bug' sarfi diafragma va difmanometr bilan o'lganadi.

10XV-2/1 dan chiqish harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.102 va o'sha joydagi simobli termometr poz.109 bilan qayd qilinadi.

Bug'-gaz aralashmasi va flegma sovutgich 10N-2/1 ga kelib tushgach, bu yerda 10X-2/1 ning quvurlari oralig'idan o'tadigan aylanma suvning sovuqligi sababli soviydi.

Nordon gazning 10N 2/1dan keyingi harorati o'sha joydagi simobli termometr poz.110 bilan qayd qilinadi. Sovutgichdan nordon gazlar va flegma nordon gazlar ajratgichi 10S-3 ga keladi. Qish vaqtida nordon gazlarni ajratgichda 10S-3 ga sovutgich 10N-2/1 ga kiritmasdan berish ishlash prinsipida nazarda tutilgan. 10S-3 da gaz suv tomchilaridan ajratiladi.

Ajratgich 10S-3dan nordon gazlar yuqorioltingugurtli gazlarni qayta ishlab, Klaus qurilmasiga texnik oltingugurt olish uchun yo'llansa, kam oltingugurtli gazni qayta ishlashda esa – mash'alga tashlanadi.

Ajratgich 10S-3 dan olingan flegma desorber 10K-2 ning yuqori qismiga qaytariladi.

Ajratgichdagi doimiy sath, 10N-2ning chiqarib tashlash tizimiga o'rnatilgan klapan bilan rostlanib ushlab turiladi.

Sathni qayd qilish va rostlab turish operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.47 bilan amalga oshiriladi.

Flegmaning sarfi asbob bilan qayd qilinib, undan berilgan pnevmatik xabar operatorlar shchitidagi asbob poz.305 ga beriladi.

Shuningdek, 10S-3dagi suyuqlikning eng past sathi xabari poz.407 da, ajratgich 10S-3ning minimal sathida nasos 10N-2ning to'xtashi nazarda tutilgan.

Amin eritmalarining apparat va quvurlardan drenaj sig'imi 10E-6 ga haydash atmosfera bosimida amalga oshiriladi. Sig'im 10E-6dan, eritma, nasos 10N-6 bilan regeneratsiyalangan eritma yig'gichi 10E-2ga beriladi. Eritmani 10E-2 ga qaytarishdan oldin, uni filtrlash imkoniyati ham mavjud. Sig'im 10E-6dagi sathni qayd qilish uchun asbob poz.410 nazarda tutilgan.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Ishlatish jarayonida yo‘qotilgan aminni to‘ldirish uchun, regeneratsiyali eritma sig‘imi 10E-2/1 ga 5-sex omboridan konsentrlangan toza MDEA beriladi.

Konsentrlangan aminni suyultirish suv bug‘i kondensati bilan zavod dipecherining ruxsatiga binoan amalga oshiriladi. Suv bug‘i kondensati magistral liniyaga chiqayotgan bug‘ kondensatidan beriladi. Eritmani mexanik va boshqa aralashmalardan tozalash uchun qurilmada eritmaning bir qismini (tahminan sistemada aylanuvchi umumiy hajmni 10%) filtr F-1da filtrlash nazarda tutilgan.

Filtrlashga beriladigan eritma, regeneratsiya qilingan eritma sig‘imi 10E-2/1dan nasos N-3/1 orqali beriladi. Filtrlangan eritma amin yig‘gich 10E-2/1 ga qaytariladi. Eritmani filtrlash aktivlangan ko‘mir qatlamida amalga oshiriladi.

Filtrning kirish qismida mexanik aralashmalardan dag‘al tozalanib, aktivlangan ko‘mirda esa ko‘piklantiruvchi, ya‘ni eritmada yig‘ilib borishga moyil va absorberda ko‘piklanishga olib keluvchi moddalardan chuqur tozalanadi.

Eritmani filtrlash bilan birga ko‘piklanishni yo‘qotish uchun ko‘pikso‘ndirgichlar ishlatiladi. Ko‘pikso‘ndirgich sig‘im 10E-5dan nasos 10N-7 bilan olinib, sirkulyatsiya nasosi 10N-1ning so‘rish kollektoriga beriladi.

Ko‘pikso‘ndirgichning suvda erimasligini inobatga olib, aralashmada qatlamlarga ajratmasligining oldini olish uchun, u sistemaga emulsiya holatida kiritiladi, buning uchun vaqti-vaqti bilan ishlaydigan nasos 10N-8 xizmat qiladi.

Metallarning zanglash tezligini kamaytirish maqsadida, ingibitorlik xossasiga ham ega bo‘lgan ko‘pikso‘ndirgich sistemada ko‘piklanish kuzatilmasa ham kiritiladi.

Yuqori oltingugurtli gazni oltingugurtdan tozalash ishlash prinsipi

O‘rta-buloq, Xauzak - Dengizko‘l konlaridan chiqayotgan yuqorioltingugurtli gazlarni tozalash 13, 14-bloklarda amalga oshiriladi, bundan tashqari loyixa bo‘yicha kamoltingugurtli gazlarni tozalashga mo‘ljallangan 15-blok ham yuqoriloltingugurtli gazda ishlay olish imkoniyatiga ega.

Oltingugurtdan tozalash bloklari apparaturalar va texnologik jihozlanish jihatidan bir xil bo‘lib, kam farq qiladigan tomonlarini hisobga olmaganda, ya‘ni ular haqida keyingi sahifalarda fikr bildiriladi.

Bayonnoma 13-qurilma uchun keltirilgan. 13-blokka gaz O‘rta-buloq, Xauzak, Dengizko‘l konlaridan keladi. Gaz 4,8-5,5 MRa bosim ostida va 10-40⁰Sda birlamchi-gorizonta (yotiq) ajratgich 10E-1ga kelib tushadi. Gazning birdan kengayishi va oqim yo‘nalishining o‘zgarishi hisobiga uglevodorod kondensati, suv tomchilari mexanik aralashmalar va zanglash ingibitorlar ajralishiga olib keladi.

Ajratgich 10E-1dagi suyuqlik sathi klapan rostlagich poz.403 bilan rostlanadi. Sath ko‘rsatkichlari operatorlar xonasi shchitida joylashgan birlamchi asbob UBP dan ikkilamchi asbobga beriladi.

Eng kam sath holatida esa tovushli va yorug‘lik xabarchilari poz.403 ishlaydi.

Gazning 10E-1dagi bosimi va harorati o‘sha joydagi texnik manometr poz.202, va simobli termometr poz.125 bilan o‘lchanadi. Birlamchi ajratgich 10E-1ning chiqishida gazning harorati termopara poz.121-1 bilan o‘lchanib, ko‘rsatkichlari ikkilamchi asbobga uzatiladi. Gaz sarfi diafragma poz.301da o‘lchanib, ko‘rsatkichlari operatorlar xonasi shchitidagi asbobga beriladi. Shundan so‘ng xom ashyo gazi

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O‘zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

ikkilamchi tik ajratgich 10E-2 ga kelib tushib, qo'shimcha tarzda suyuq uglevodorodlardan, suvdan, mexanik aralashmalardan ajraladi.

Ajratgich 10E-2dagi suyuqlik sathi sath o'lchagich poz.404 bilan nazorat qilinib, ko'rsatgichlari operatorlar xonasi shchitida joylashgan asbobga beriladi. Minimal yoki maksimal sathga yetganda tovushli va yorug'lik xabarchilari poz.404 ishlaydi.

Ajratgich 10E-2dagi gaz haroratini o'lchash o'sha joydagi simobli termometr poz.126 bilan amalga oshiriladi. 10E-2dagi bosim farqini qayd qilish asbob poz.203 bilan amalga oshirilib, operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.223 ga xabar beriladi.

Ajratgichlar 10E-1, 2 dan gaz kondensati yig'ilishiga qarab 1-sexdagi shabodalash qurilmasiga beriladi.

Suyuqlik tomchilari va mexanik aralashmalardan tozalangan gaz ajratgich 10E-2dan absorber 10K-1ning pastki qismiga birinchi to'rsimon likopchaning ostidan kiradi.

13, 14-bloklardagi absorber 32 likopcha, 15-blokda absorberda 24 likopcha bor. Amin eritmasi absorberning o'rta qismiga 19-likopchaga 15-blokda absorberda 12-likopchaga beriladi. Absorber 10K-1da bosim farqini o'lchash asbob poz.204 bilan amalga oshirilib, ko'rsatgichlari operatorlar xonasi shchitidagi asbobga beriladi.

Absorber 10K-1dagi aminning to'yingan eritmasi sathi sath o'lchagich bilan o'lchanib, undan berilgan pnevmatik xabar rostlagich orqali klapan rostlagichga beriladi. Sath operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.401 bilan rostlanadi. Nordon komponentlardan tozalangan gaz, harorati 45-55⁰S da tozalangan gaz ajratgichi 10E-3 ga kiradi, ya'ni to'rsimon qaytargichdan so'ng gaz bilan ketadigan eritma tomchilarini ajratish uchun va so'ngra PXAQga keladi. Ajratgich 10E-3dan yig'ilishiga qarab eritma, regeneratsiyalangan eritma sig'imi 10E-7ga haydaladi. Ajratgich 10E-3 eritmaning ko'piklanish ehtimoli natijasida otilib chiqadigan moddalarni ham qabul qilishga mo'ljallangan. Tozalangan gaz ajratgichida suyuqlikning eng past sathi haqida xabar berish nazarda tutilgan. Sathni 10E-3 da nazorat qilish datchik poz.405 bilan amalga oshirilib, undan pnevmatik xabar operatorlar xonasi shchitidagi asbobga beriladi.

Tozalangan gaz tarkibidagi vodorod sulfid gazoanalizatorlar yordamida nazorat qilinadi. Gaz tarkibida N₂S miqdori 7,0 mg/m³dan ko'p bo'lganda, yuqorida keltirilgan 3 ta blokka tegishli (14-estakada poz.301) uzgichlar maydonida o'rnatilgan uzgich klapanlarni yopish yo'li orqali xom ashyo gazini berish to'xtatiladi. Halokat yoki kondisiyalanmagan gazni chiqarib yuborish kerak bo'lganda 10E-3ning chiqish tizimiga o'rnatilgan 2 ta uzgich ochilib, gazni yuqori bosimli mash'alaga yuboriladi.

Vodorod sulfid va karbonat angidrid bilan to'yingan eritma absorberdan klapan uzgichdan keyin ekspanzer 10E-6ga sathini nazorat qilgan holda kelib tushadi, ya'ni sathni klapan rostlagich ushlab turadi va operatorlar xonasi shchitida ikkilamchi asbob poz.402 bilan qayd qilinadi. Absorberda eng past sath bo'lganda eritma chiqish yo'liga o'rnatilgan uzgich klapan poz.401 yopilib, absorberdan tashqariga chiqadigan eritma uziladi, shuningdek klapan poz.301 yopilib, tozalanishga kelayotgan gaz uziladi.

Ekspanzer 10E-6da bosimning 0,6 MRa ga tushishi hisobiga to'yingan eritmadan qisman gaz ajralishi ro'y beradi. Ekspanzerdagi bosim ekspanzer gazlari chiqadigan tizimga o'rnatilgan avtomatik klapan rostlagich poz.213 bilan ushlab turiladi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Ekspanzer gazlari harorati operatorlar xonasi shchitida o'rnatilgan asbob poz.121 bilan qayd etiladi. Ekspanzerdagi sath issiqlikalmashtirgichlar 10T-1/1, 2, 3 dan keyin to'yingan eritma tizimiga o'rnatilgan klapan rostlagich poz.402 bilan ushlab turiladi.

Sathni rostlash va qayd qilish operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.402 bilan amalga oshiriladi.

Zavodning II-III navbatidagi bloklari ekspanzer gazlarini absorber 10K-3da tozalash, loyihada ko'zda tutilgan. Biroq, ekspanzer gazlari mash'alada zatvor gazi sifatida ishlatilganligi sababli, ekspanzer gazlarini tozalash tizimidan foydalanilmaydi.

MDEAning to'yingan eritmasi 10E-6 dan eritma issiqlikalmashtirgichlar 10T-1/1, 2, 3 ga kelib tushadi. To'yingan eritma ketma-ket tartibdagi issiqlikalmashtirgichlar 10T-1/1, 2, 3ning o'tgazgichlari quvuridan o'tayotib, quvurlar ichidagi oqimga qarshi borayotgan qaynoq regeneratsiyalangan eritma bilan isitiladi.

To'yingan eritma haroratining nazorat qilish o'sha joydagi simobli termometr poz.108 bilan amalga oshiriladi.

Gazni nordon komponentlardan «ho'l usul» bilan tozalashda regeneratsiya bug'i harajatlari ekspluatatsiya xarajatlarining asosiysi hisoblanib, bu harajatlarni kamaytirish maqsadida 13, 14-bloklarga «sovuq baypas» deb nomlangan ishlash prinsipi ishlatilgan. Bundan maqsad to'yingan eritmani ikkita oqim bilan desorberga berish.

To'yingan eritma, 10T-1/1, 2, 3 da 105-110⁰S haroratgacha isitilib, 10K-2 desorberni o'rta qismiga 18-likopchaga beriladi. Ekspanzerdan qisman, tahminan 10% eritma, 10T-1/1, 2, 3 dan tashqari sachratib sovutish maqsadida desorber yuqori qismi 23-likopchaga beriladi. 15-blokda issiqlikalmashtirgichlar orqali to'yingan eritmani to'la hajmi o'tadi.

To'yingan eritmadan yutilgan nordon komponentlar, desorberning S shaklidagi tarelkasida eritmaning 10I-1/1, 2 bug'latgich olgan suv bug'i kondensatsiyasi issiqligi hisobiga ajralib chiqadi. Eritma bu joyda 125 ⁰S haroratgacha isiydi. MDEAning regeneratsiyalangan eritmasi setkasiz tarelka ostida desorberning quyi qismiga oqib tushadi.

K-2 quyi qismidagi harorat operatorlar shchitidagi asbob poz.102 bilan qayd qilinadi.

MDEAning regeneratsiya qilingan eritmasi, 10K-2 ning quyi qismidan issiqlikalmashtirgich 10T-1/1, 2, 3 lar o'tkazgichlari oralig'iga kirib, qarshi oqimda oqadigan to'yingan eritma bilan rekuperatsiya issiqligi hisobiga harorati 85 ⁰S gacha tushib soviydi. Regeneratsiyalangan amin eritmasi shundan so'ng sovushi uchun havo bilan sovutish apparati 10XV-1 va so'ngra 60-70 ⁰S haroratda regeneratsiyalangan eritma yig'gich 10E-7 ga kelib tushadi.

Havo bilan sovutish apparatining eritmalar chiqish qismiga 10K-2 dagi sathni rostlash klapani o'rnatilgan bo'lib, u operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.406 bilan boshqariladi.

10K-2 dagi eng past sath haqida xabar berish ham mavjud.

10E-7 yig'gichdagi sathni o'lchab, operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.410 da qayd qilish va eng past sath holati haqida xabar berish nazarda tutilgan. Eritmaning eng past sathi holatida chiqaruvchi nasoslar 10N-5/1, 2 va tegishlicha sirkulyatsiya

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

qiluvchi nasoslar to'xtatilishi amalga oshiriladi. Regeneratsiyalangan amin eritmasi chiqaruvchi nasoslar orqali kollektorga berilib, bu joyda absorpsiya tarmog'iga kelayotgan eritma umumiy miqdorini o'lchash amalga oshiriladi. O'lchash diafragma poz.307da amalga oshirilib, ko'rsatgichlar operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.307 bilan qayd qilinadi. So'ngra regeneratsiya qilingan eritma chiqarish qismi kollektorga ulangan 10N-1/1, 2, 3 sirkulyatsiya nasoslarining so'rilish qismiga keladi. Shundan so'ng eritma ketma-ket suvli 10X-1/2 so'rgichlardan o'tib, absorberning o'rta qismiga beriladi. 15-blokda bu sovutgichlar parallel holda ishlaydi. Eritma sovutgichlarida 40-50 °S gacha soviydi (Iqlim sharoitiga bog'liq holda).

Oltingugurtdan tozalash qurilmasida loyiha ishlash prinsipi bo'yicha eritmani 10K-1 ga ikki oqimli berish saqlab qoling. Birinchi oqim, ya'ni umumiy eritma hajmining 25 % miqdori o'lchagich diafragma poz.303 va rostlagich klapan poz.303 orqali suv sovutgich 10X-1 ga, so'ngra K-1 ning yuqori qismiga keladi. Eritma miqdorini qayd qilish va rostlash asbob poz.333 bilan amalga oshiriladi. Eritmaning suv bilan sovutish apparati 10X-1 dan chiqishdagi harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.121 bilan qayd qilinadi, shu bilan birga o'sha joydagi termometr poz.210 bilan o'lchanadi.

Ikkinchi oqim umumiy eritma hajmining 75% miqdoridagisi o'lchagich diafragma poz.302 orqali suvli sovutgich 10X-2 ga va so'ngra 10K-1ning o'rta qismiga keladi. Eritma sarfi operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.302 bilan qayd qilinadi. Harorat operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.121da qayd qilinadi. Shunday qilib, eritmaning aylanib turishi qaytarilib turadi.

Bug'-gaz aralashmasi (ozgina miqdordagi amin nordon gazlar va suv bug'i) desorber 10K-2ning yuqori qismidan 115 °S gacha haroratda havo bilan sovutish apparati - 10XV-2ga keladi.

Aralashma harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.103 bilan qayd qilinadi.

Bug'-gaz aralashma harorati kerakli darajada bug'latgich 10I-1/1, 2ning bug' berish tizimiga o'rnatilgan rostlagich klapan orqali beriladigan suv bug'i sarfi bilan ushlab turiladi. Bug' sarfi operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.329 bilan qayd qilinadi. Havo bilan sovutish apparati (HSA)da bug'-gaz aralashmasi 70°S gacha soviydi, shu sababli suv bug'i kondensatsiyalanadi (suyuqlikka aylanadi). Nordon gazlarni bundan ajratish uchun, oraliq ajratgich - 10E-4 xizmat qiladi. Kondensatsiyalangan flegma nordon gazlar ajratgichi - 10E-5 ga oqib tushadi. Oraliq ajratgich 12-blokda loyiha bo'yicha nazarda tutilmagan. 10XV-2 dan chiqish harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.102 bilan qayd qilinadi. Nordon gaz 10E-4 ning yuqori qismidan chiqib, suvli sovutgich - 10X-3ga sovish uchun, so'ngra suyuqlik tomchilaridan o'ta toza ajralish uchun ajratgich - 10E-5ga kiradi. 10X-3dan chiqish harorati o'sha joydagi termometr poz.110 bilan o'lchanadi. Shundan so'ng nordon gaz oltingugurt ishlab chiqarishga kelib tushadi. Nordon gazni nordon gaz kollektoriga boshqarish imkoniyati ham mavjud. Ajratgich - 10E-5da va tegishli desorberdagi bosim, 10E-5dan keyin nordon gazlar o'tkazgichlarida o'rnatilgan rostlagich klapan bilan ushlab turilib, shchitdagi asbob poz.305 bilan qayd qilinadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Nordon gaz harorati operatorlar shchitidagi asbob poz.102, sarfi esa asbob poz.304 bilan qayd qilinadi. Kondensatsiyalangan suyuqlik flegma ajratgich - 10E-5ning quyi qismida yig'iladi va desorberning yuqori qismidagi haroratni ushlab turish uchun suyuqlik (flegma) nasosi bilan 10K-2 ning yuqori qismidan sepiladi. Flegmaning ajratgich 10E-5dagi sathini haydash nasosi - 10N-2 tizimiga o'rnatilgan klapan bilan rostlanib, sarfi esa operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.305 bilan qayd qilinadi.

Amin eritmasini filtrlash jarayoni yuqorida keltirilgan 12-blok ishlash prinsipi bilan bir xil.

To'yingan amin eritmasini regeneratsiyalash uchun issiqlik o'tkazgich sifatida bosimi 0,5 MRa va harorati 158 °S bo'lgan to'yingan suv bug'i qo'llaniladi. Suv bug'i sarfi IV navbatda xo'jalik hisobidagi asbob poz.332 harorati operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.125 bilan qayd qilinadi.

Kollektordan bug' taqsimlash taroziga kelib, u yerda bug' harorati simobli termometr poz.131 bilan o'lchanadi. Keyin suv bug'i desorberning bug'latgichiga keladi.

Jarayonda hosil bo'lgan bug' kondensati yig'gich 10E-12da yig'ilib, doimiy sath rostlagich klapan poz.429 bilan ushlab turiladi.

Klapanni boshqarish operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.429 bilan amalga oshiriladi. Bug' kondensatining 10E-12dan chiqish harorati o'sha joyda texnik termometr bilan o'lchanadi. Qurilmadagi bug' kondensat sarfi operatorlar xonasi shchitidagi asbob poz.333 bilan qayd qilinadi. So'ngra bug' kondensati kollektor bo'yicha uskunaga, 2-qozonxona kondensati sifatini nazorat qilish uchun yo'llanadi.

Past haroratli ajratish qurilmasining (PHAQ) ishlash prinsipi

PHA qurilmasi ochiq maydonda oltingugurtdan tozalash qurilmasi bilan birga joylashgan va MGQIZning II-III navbati uchun ilgari Neftkimyo apparatlari konstruktorlik byuro markazi (NAKBM) tomonidan ishlab chiqarilgan apparatlar bilan jihozlangan.

Oltingugurtdan tozalash qurilmasining tozalangan gaz chiqishida, tozalangan gaz kollektoriga PHAQ kirmasdan gazni berish uchun, baypasli tizim ko'zda tutilgan.

2. Maxsulot i/ch tannarxidagi to'g'ri moddiy sarflarni ochib - xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, quvvatlar va yoqilg'i sarflarining hisobi (qayta ishlanadigan chiqindi ayrilgan xolda). Bu ma'lumotlar korxonaning texnologik reglamenti yoki loyixaning moddiy balansidan olinadi.
3. Mahsulot tannarxidagi boshqa to'g'ri, yondosh sarflar, asosiy fondlarning amortizatsiyasi va qolgan shu jumladan ustama sarflar asosida mahsulot tannarxining (1 o'lcham va yillik) hisobi - korxona ma'lumotlari asosida (1 o'lcham mahsulot i/ch tannarxining kalkulyatsiyasi)
4. Mahsulot tannarxining asosida loyiha bo'yicha foydasi, mahsulotning ulgurji bahosi, rentabelligi, erkin-sotish bahosining hisobi
5. Asosiy ko'rsatkichlar hisobi- Ishlab chiqarishning asosiy texnik- iqtisodiy ko'rsatkichlari, mahsulotning yillik hajmi (natural va qiymat ifoda bo'yicha), 1 o'lcham va yillik maxsulotning i/ch tannarxi, foyda, rentabellik ko'rsatkichlar, 1 o'lcham mahsulotning erkin bahosi, 1 ishchi va sex xodimining o'rtacha oyligi, moddiy sarflarning tannarxdagi ulushi

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

**Ishlab chiqarish dasturi - mahsulotning yillik
ishlab chiqarish hajmi (natural va qiymat ifodasida)**

№	Mahsulot nomi	O'lcham	Bir o'lcham narxi sum	Natural ifodasi	Qiymat ifodasi m.so'm.
1	2	3	4	5	6
	Gaz aralashmasi	m ³	140 245.05	29 250	4 102 166.8

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining kalkulyatsiyasi

Yillik ishlab chiqarish xajmi – 29 250 m³

Maxsulotning kalkulyatsion o'lchami -

№	Sarf moddalar	Sarflar qiymati	
		1 o'lcham maxsulot uchun, sum	Yillik xajmi, m.sum
1	2	3	4
1	To'g'ri moddiy sarflar	68 960	2 017 080
	Mexnatga doir to'g'ri sarflar, shu jumladan:	6 800	198 900
3	Ishlab chiqarish ishchilaring ish xaqi	5 100	149 175
	Sug'urta ajratmalari (yagona ijtimoiy to'lov -25%)	1 700	497 250
4	Materialga doir yondosh sarflar	11 900	348 750
	Mexnatga doir yondosh sarflar	6 800	198 900
5	Asosiy fondlar amortizatsiyasi	1 730	50 625.0
6	Boshqa (shu jumladan ustama) sarflar		
	Ishlab chiqarish tannarxi	96 190	2 813 557.5
	Davr xarajatlari	6 733.3	196 949
	Umumiy sarflar	102 923.3	3 010 506.5
	Foyda	20 680.85	604 914.8
	Maxsulot rentabelligi	21.5	
	Korxonaning ulgurji baxosi	116 870.85	3 418 472.3
	Aksiz	-	

Bajardi	Karimova D.			<i>Hisob tushuntiruv yozuvi</i>	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

	Kelishilgan (erkin -sotish)baho, - 20% QQS bilan.	140 25.02	4 102 166.8
--	--	-----------	-------------

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobi

№	Ko'rsatkichlar	O'lcham	Loyixa buyicha
1	2	3	4
1	Yillik ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi A) natural ifodada B) tovar maxsulotining qiymati	M ³ ming so'm	29250 3 418 472.3
2	Bir o'lcham maxsulotning tannarxi (ishlab chiqarish sarflari)	so'm/o'lcham so'm/o'lcham	96 190
3	Yillik maxsulotning tannarxi	ming so'm	2 813 557.5
4	Maxsulotning erkin sotish baxosi	so'm/o'lcham	140 245.02
5	Yillik foyda	ming so'm	604 914.8
6	Maxsulot rentabelligi (samaradorligi %)	%	21.5
7	Bir ishlovchining o'rtacha oylik ish haqi	ming so'm	800 000
8	Bir ishchining o'rtacha oylik ish haqi	ming so'm	600 000
9	Moddiy sarflarning i/ch tannarxidagi ulushi	%	71.7

Bir yildagi joriy yo'qotish hisobi

Nordon gazlarning o'rtacha narxi quydagi xarajatlar orqali kelib chiqadi:

1. Xom ashyo sarfi:

Xom ashyo uchun sarf: $S_{mat.} = Q_{kiradigan.} \cdot N \cdot S$

Bu yerda $Q_{post.}$ – kelayotgan issiqlik hajmi, m³;

N – Normadagi material sarfi, yil;

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

S – xom ashyo narxi,so'm.

Xom ashyo sifatida gaz aralashmasi ishlatiladi.

Adorantni sarflanishi:

$$S_{\text{odor.}} = 1116900000 \cdot 0,016 \cdot 200 = 861353,28 \text{ so'm.}$$

Isitish uchun isituvchi sarflanishi:

$$S_{\text{isit.}} = 1116900000 \cdot 0,004 \cdot 0,0168 = 12509,28 \text{ so'm.}$$

Kranik uchun ishlatiladigan smaskani sarflash:

$$S_{\text{smaz.}} = 186150000 \cdot 0,003 \cdot 0,011 = 36857,7 \text{ so'm.}$$

$$\text{Issiqlikni yo'qotilishi } S_{\text{yuko.}} = \frac{Q_{\text{ПОТ.}} \times U \times b1}{1000}$$

$$S_{\text{yuk}} = \frac{1675350 \times 1200 \times 1,455}{1000} = 2925161,1 \text{ so'm.}$$

Loyixalanilayotgan priborla uchun sarf:

$$S_{\text{yuk}} = \frac{1675350 \times 1200 \times 0,877}{1000} = 1763138,34 \text{ so'm.}$$

Energetik xodim uchun sarf:

$$S_{\text{el.}} = \sum N \times T \times U,$$

Bu yerda N – elector qurilmalarni summaviy quvvati, kVt;

T- calendar vaqti, soat., T- 8700 soat.

S - 1kVt·soat summasi.

$$S_{\text{el.}} = 2,2 \cdot 8700 \cdot 2,5 = 47850 \text{ so'm.}$$

Umumiy xom ashyo sarfi:

$$S_1 = S_{\text{od}} + S_{\text{met.}} + S_{\text{sm.}} + S_{\text{pot.}} + S_{\text{el.}},$$

$$S_{1\text{baz}} = 861353,28 + 12509,28 + 36857,7 + 2925161,1 + 47850 = 3883731,36 \text{ so'm.}$$

$$S_{1\text{loy}} = 861353,28 + 12509,28 + 36857,7 + 1763138,34 + 47850 = 2721708,6 \text{ so'm.}$$

2. Ish uchun to'lanadigan haq:

Ish uchun rejali to'lov fondi:

$$S_{\text{reja.}} = 299644,4 \text{ so'm. (4.1.2)}$$

Umumiy ish uchun to'lanadigan haq:

$$S_2 = S_{\text{reja.}}$$

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

$$S_2 = 299644,4 \text{ so'm.}$$

Asosiy fondlar amartizatsiyasi.

$$S_{ar} = S_a \cdot K_a,$$

Bu yerda S_{ar} – asosiy fondlardan foydalanganlik uchun ijara haqqi, so'm.;

S_a – amartizatsiya summasi, so'm.;

K_a – arenda ko'fsienti.

Amartizatsiyani asosiy fondi :

$$S_a = \frac{BC \times H}{100\%},$$

Bu yerda BS – asosiy fondlarning balans qiymati, so'm.;

N – amartizatsiya normasi, %.

Amartizatsiya sarflarini summasi jadvalda keltirilgan. Jadval 4.6 – Amartizatsiya sarfini hisoblash

Asosiy fondlar nomlanishi	Balansqiymati OF (so'm.)	Amartizatsiya normasi (%)	Amartizatsiya summasi(so'm)
Ayni paytdagi	8132	6,0	487,92
Loyixalanilayotgan	226771	6,0	13606,26

$$S_{a \text{ baz.}} = 487,92 \text{ so'm}$$

$$S_{a. \text{ loy}} = 13606,26 \text{ so'm.}$$

Qo'shimcha sarflar.

Remond uchun fond:

$$S_{rem.} = \frac{S_a \cdot H_p}{100\%}, (4.21)$$

Bu yerda N_r –remont uchun sarflanadigan norma, % . $N_r = 25\%$;

$$S_{rem} = \frac{487,92 \cdot 25}{100} = 121,98 \text{ so'm.}$$

$$S_{rem. \text{ loy}} = \frac{13606,26 \cdot 25}{100} = 3401,56 \text{ so'm.}$$

Tarmoq uchun sarf:

$$S_{s.n.} = \frac{S_{\text{фотплан}} \cdot H_{\text{с.н.}}}{100\%}, (4.22)$$

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Bu yerda $N_{s.n.}$ – sarflar normasi, %. $N_{s.n.} = 26\%$;

$$S_{s.n.} = \frac{299644,4 \cdot 26}{100} = 77907,44 \text{ so'm.}$$

Yer uchun to'lov:

$$S_{er.} = P \cdot S, (4.23)$$

Bu yerda: P – maydon GRS chegaralar uchun, m^2

S – to'lov stavkasi $1 m^2$, so'm.

$$S_{er.} = 1200 \cdot 0,4 = 480 \text{ so'm.}$$

Qo'shimcha sarflar:

$$S_{dr.} = \frac{S_{режа} \cdot 50\%}{100\%}, (4.24)$$

$$S_{dr.} = \frac{299644,4 \times 50}{100} = 149822,20 \text{ so'm.}$$

Umumiy qo'shimcha to'lovlar:

$$S_4 = S_{rem.} + S_{c.n} + S_{zem.} + S_{dr.} (4.25)$$

$$S_{4 \text{ baz}} = 121,98 + 77907,44 + 480 + 149822,20 = 228331,62 \text{ rub.}$$

$$S_{4 \text{ loy}} = 3401,56 + 77907,44 + 480 + 149822,20 = 231611,2 \text{ rub.}$$

Eksplatatsiya uchun sarf summasi:

$$\sum S = S_1 + S_2 + S_3 + S_4, (4.26)$$

$$\sum S_{\text{baz}} = 3883731,36 + 299644,4 + 487,92 + 228331,62 + \\ + 149822,2 = 4562017,2 \text{ so'm.}$$

$$\sum S_{\text{proek}} = 2721708,6 + 299644,4 + 13606,26 + 231611,2 + \\ + 149822,2 = 3416392,66 \text{ so'm.}$$

Jadval 5.5 Yillik sarflarni taqqoslovchi qiymat

Kapetal sarfdagi elementlarni o'zgarishi	Variantlar bo'yicha qiymat		O'zgartirish (ΔK): - kichiklashtirish; + kattalashtirish.
	Tayanch	Loyixalash	
1. Material sarfi: a) material uchun sarf:	861353,28	861353,28	0

Bajardi		Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar		Xabibov F. Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana		

b) transportofkalshda issiqlikning yo'qolishi:	12509,28 36857,7	12509,28 36857,7	0 0
d) elektorenergiya sarfi.	2925161,1 47850,0	1763138,34 47850,0	- 1162022,76 0
Barcha materiallar sarfi	3883731,36	2721708,6	- 1162022,76
2. Ish uchun to'lov: - rejaviy fondi;	299644,4	299644,4	0
3. Asosiy amartozatsiya fondi.	487,92	13606,26	+ 13118,34
4. Qo'shimcha sarflar:	121,98	3401,56	+ 3279,58
a) Remont fondi uchun sarf:			
d) Satsial tarmoq uchun sarf:	77907,44	77907,44	0
v) Yer uchun haq.	480	480	0
Umumiy qo'shimcha sarflar:	228331,62	231611,2	+3279,58
5. Boshqa xarajatlar	149822,2	149822,2	0
Barchasi:	4562017,2	3416392,66	-1145624,84

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

3.5. Mehnat muhofazasi va ekologiya masalalari

Mehnatni muxofaza qilish qonuniyatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Mexnat qonunlari, kodekslar asosida olib boriladi. Mehnatkashlarni xavfsiz va sog'lom mehnat sharoiti bilan ta'minlashni davlat o'zining asosiy vazifasi deb xisoblaydi, buning uchun zarur bo'lgan chora - tadbirlarni qonun asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 8 Dekabr 12-chaqiriq II sessiyasida tasdiqlangan Konstitutsiyaning 18-20, 27, 29, 36-42 -moddalarida mehnatni muhofaza qilish maasalalari bayon etilgan.

Konstitutsiya barcha fuqarolarni mehnat qilish huquqini ta'minlaydi, ya'ni mehnatkashlar ma'lum miqdorda haq olish xisobiga ish bilan ta'minlanadilar. Bu huquq haftasiga 41 soatdan oshmagan ish soatini belgilash asosida va yiliga bir marta haq to'lanadigan (dam olish) ta'til berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash va shu sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi ekanligi Mehnat qonunlari kodeksi (MQK yoki KZOT) da yozib qo'yilgan.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini uyushtirish 1980 yil 10 iyunda tasdiqlangan va 1984 yil 14 noyabrdan kuchga kirgan yagona "Nizom"ga asoslanadi. Ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi, sanitariya - gigiyena holati bo'yicha javobgarlik korxona boshlig'i - direktori va muhandis zimmasiga yuklatilgan. Sex, bo'lim, uchastka, laboratoriyalarda ularning boshliqlari javobgardilar.

Korxona boshlig'i ajratilgan mablag' va vositalardan rejali foydalanishi, xavfsizlik texnikasi qonun - qoidalari va normalariga rioya qilinishi, mehnat qonunchiligiga amal qilishi, vazirlikdan va davlat nazorati ispeksiyaasidan beriladigan farmoyishi, ko'rsatmatlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi. Mehnat xavfsizligi standartlar tizimining tadbir qilinishini ta'minlaydi, mehnat sharoitini yaxshilash, sanitariya sog'lomlashtirish tadbirlari haqida tuzilgin rejalarini ko'rib chiqadi va ularni yuqori tashkilotga tasdiqlash uchun tadim etadi, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishadi. Nomenkulatura chora tadbirlarining bajarilishi uchun zarur bo'lgan mablag'ni ajratadi, bajarilishini tekshiradi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Har yili muhandis - texnik xodimlar kengash o'tkazadi. Statistik hisobot, baxtsiz hodisalar axborotini o'z vaqtida tavsiya etilishini ta'minlaydi.

Bosh muhandis korxonada barcha tashkiliy - texnikaviy ishlarni bajaradi, buning uchun mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha bosh muhandis o'rinbosari lavozimi bo'lishi mumkin. Katta korxonalarda ishlab chiqarish quvvati xavfsizligi jihatdan mehnat muxofazasi bo'lishi tashkil etiladi. Kichik korxonalarda esa xavfsizlik masalalari bilan muhandis shug'ullanadi.

Bosh muhandis korxona bo'yicha mehnat muxofazasi xizmati ishlariga raxbarlik qiladi, tuzilgan rejani tasdiqlaydi.

Bosh muhandis kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birga xavfsizlik rejalari, yo'riqnomalarini ko'rib chiqadi, tasdiqlaydi. Malaka oshirish, xavfsizlik texnikasi bo'yicha sinov, teshirish va o'qitish ishlarini uyushtiriladi. Korxona bo'limlarning xavfsizlik holatini shaxsan ko'rib chiqadi, qonun - qoidalarga amal qilish jarayonlarning bajarishini teshiradi, suxbatlar o'tkazadi. Kamchiliklarni mutasaddi shaxslarga ko'rsatib maxsus daftarga belgilab qo'yadi.

Mehnatni muxofaza qilish bo'limi (MMQB) o'z faoliyatini korxonaning boshqa bo'limlari, kasaba uyushmasi qo'mitasi, mehnat bo'yicha texnik nazoratchi, mahalliy davlat nazorati organlari bilan birlilikda tasdiqlangan reja asosida olib boradi.

Bo'lim quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xavfsiz, sog'lom mehnat sharoitini takomillashtirish;
- shikastlanish, kasallikdan ogohlantirish;
- ilg'or samarali tajriba, ilmiy usullarni tadbiq ilish;
- korxonada nazorat o'rnatish, shikastlanish va kasallanishlarning sabablarini tekshirish;
- sharoitni yaxshilash borasida chora tadbirlar ishlab chiqish;
- qayta ta'mirlangan asbob uskunalarni qabul qilish komissiyasida ishtirok etish;
- baxtsiz xodisalarni tekshirishda ishtirok etish, xisobot tuzish va boshqalar.

Texnologik uskuna, moslama, qurilma - apparatlarining xavfsizligi.

Sanoat korxonalarida mo'ljallangan ishlarni, texnologik jarayonlarni bajarib, talabga mos keladigan maxsulot va moddalar olishda bir necha turdagi univarsal,

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

maxsus, asosiy va qo'shimcha asbob - uskunalardan foydalaniladi. Ularga nasoslar, kompressorlar, shamollatgich (ventilyator)lar, sentrifuga, quritish qurilmasi, ekstraktorlar, separatorlar, gazni va changni tozalash uskunalari, transport vositalari, issiqlik almashtirgichlar, rektifikatsiya kolonnalari, absorberlar, granulyatorlar, xloratorlar, sublimatorlar, presslar, reaktorlar, kontakt apparatlari, sintez kolonnalari, bug'latgichlar, sig'implar, distillyatorlar, maydalagichlar, idish saqlagichlar va boshqalar misol bo'ladi.

Sanoatda qo'llaniladigan zamonaviy uskunalarni yaratish va qo'llashda umumiy xavfsizlik yo'llanmasi sifatida unifikatsiya jadallashtirish, kam quvvat sarflash, ergonomika, yiriklashtirish, ishonchlilikni oshirish omillari hisobga olinadi, shuningdek, uskunalariga inson xususiyatlarini, faoliyatini ifodalaydigan antropometrik, psixofiziologik, psixologik, gigienik talablar qo'yiladi. Talablar: GOST 12.2.032-78, SSBT, GOST 12.2.033 - 78, GOST 12.2.049 -80 ga asoslanishi lozim.

Uskuna, moslama - apparatlarning ishonchlilik darajasini oshirish, baxolash, shuningdek bo'ladigan avariya va shikastlanishdan ogohlantirishda ishlatiladigan metall qotishmalarning mexanik pishiqligi, issiqlik ta'siriga, chirishga chidamliligi hisobga olinadi.

Mexanik pishiqlik materiallarini, qismlarni, qurilmalarni, tashqi kuch ta'sirida buzilishga bo'lgan qarshilik qobiliyati bilan ifodalanadi. Pishiqlik, oquvchanlik chegarasi, urilishi, qovushqolik, mexanik pishiqlikning asosiy ko'rsatgichlari bo'lib hisoblanadi. Barcha uskunalarining pishiqligini baholashda zaxira koeffisientidan foydalaniladi.

Materiallarning issiqlikka chidamliligi ularning yuqori haroratda tashqi mexanik kuch ta'sirida buzilishiga bo'ladigan qarshiligi bilan ifodalanadi. Materiallarni toblash, tarkibigi boshqa qotishma materiallar (xrom, vol'fram, va h.k.) qo'shish va termik qayta ishlash bilan uning pishiqligi oshiriladi. Texnologik uskuna - apparatlar pishiqligini ta'minlash, avariya sodir bo'lmasligi ularni tayyorlash uchun materiallarni, shakllarni to'g'ri tanlashga, jismlar yuzasini sifatli qayta ishlashga bog'liq.

Tayyorlangan har bir uskuna, idish, apparat ishga tushirishdan avval to'liq texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Buning uchun defektoskopiya usullaridan foydalaniladi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Choklarning sifati, mexanik pishiqligi tekshirilganidan so'ng foydalanishga ruxsat beriladi.

Idish va qurilmalarning tashqi tomoni bir yilda bir marta ko'rib chiqiladi. Cho'zilish, bukilish va qovushqoqlikka sinaladi, materiallar va idishlarning ba'zi qismlari rentgen va gamma nurlari bilan tekshiriladi. Ulangan joylarning zichligi, mustahkamligi suv yordamida sinab ko'riladi.

Ba'zi hollarda apparat, uskuna qobig'ida tashqi kuch ta'sirida vujudga keladigan haqiqiy cho'zilish, siqilish kuchlanishni va xavfsizlik darajasini aniqlashda mexanik va elektr tenzometrlardan foydalaniladi. Sanoatda qo'llaniladigan uskuna va apparatlarning barchasi xavfsizlikni ta'minlash maqsadida GOST 12.2.003 - 79 SSBT talablariga to'liq javob berishi kerak.

Texnologik uskuna, moslama, apparatlarning xavfsiz ishlatilishida, ishchilarning shikastlanishdan saqlashda quyidagi umumiy tadbir - choralar ko'rilishi zarur.

- 1) uskuna, apparat tarkibidagi qismlar xavf tug'diradigan darajada shikastlangan bo'lmasligi;
- 2) uskuna, qurilma tayyorlash uchun qo'llaniladigan material xavfli va zararli bo'lmasligi;
- 3) harakatlanuvchi va xavfli qismlarni to'siqlash;
- 4) uskuna, apparatlarning to'liq ko'rinishida o'tkir qirralar, bo'rtiqlar, notekis yuzalar bo'lmasligi;
- 5) ishchilarning issiq yoki sovuq qismlarga to'satdan, favqulotda tegish holatlarining bo'lmasligi;
- 6) uskuna, apparatlarni qulay, xavfsiz yo'lak, vositalar bilan ta'minlash;
- 7) mahalliy yoritilishi to'la ta'minlash;
- 8) uskunalarni ularga elektr tokini uzatishni uzib qo'yadigan vositalar bilan ta'minlash;
- 9) elektr toki yordamida shikastlanishdan himoyalash;
- 10) shovqin, tebranish, ultratovushning normadan oshib ketmasligini ta'minlash;

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

11) xom ashyo, mahsulotni yuklash, tushirish, tashish jarayonini avtomatlashtirish;

12) bosim ostida bajariladigan ishlarda kichikroq hajmdagi apparatlardan foydalanish.

Mashina, jihoz va qurilmalarni o'rnatish, ta'mirlash va foydalanishda mehnat xavfsizligi

O'rnatish ishlarini bajarishning barcha bosqichlarida ishlovchilarning mehnat xavfsizligi ta'minlanishi zarur.

O'rnatish maydonchalari, ish uchastkalari, ish o'rinlari, yuk tashish mashinalari va transport vositalari o'tish joylari hamda odamlar o'tish joylarini tashkil qilishda inson uchun xavfli bo'lgan zonalar aniqlanadi. Xavfli zonalar belgilangan, shakldagi xavfsizlik belgilari va yozuvlari bilan ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish faktorlariga bog'liq bo'lgan, doimiy mavjud bo'ladigan xavfli zonalarga quyidagilar kiradi:

- elektr qurilmalarining tok yurituvchi himoyalangan qismlari atrofi ;
- 1,3 m va undan ko'p balandliklar farqiga ega bo'lgan, o'ralmagan yo'laklar va maydonchalar ;
- mashina va jihozlarni yoki ularning qismlari va ishchi organlarini harakatlantirish joylari;
- tarkibida belgilangan normadan ko'p miqdorda zaharli moddalar kontsentratsiyasi mavjud bo'lgan yoki ruxsat etilgan normadan yuqori shovqinli joylar;
- yuk ko'taruvchi kranlar yordamida yuklarni harakatlantirish joylari.

Doimiy ishlab chiqarish faktorlari xavfli zonalariga begonalar kirib kelishini oldini olish maqsadida bu zonalar himoya to'siqlari bilan o'ralgan holda bo'lishi kerak. Ushbu zonalarda qurilish-montaj ishlarini bajarishga ruxsat berilmaydi.

Takelaj ishlarini amalga oshirish vaqtida quyidagi asosiy talablarga rioya qilish zarur bo'ladi:

- ko'tarilayotgan yuk massasi yukni ushlovchi moslamalar va tara og'irligi

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

bilan birgalikda yuk ko'taruvchi kranning texnik pasportida ko'rsatilgan maksimal yuk ko'tarish qiymatidan oshmasligi kerak;

- yuk massasi maksimal yuk ko'tarish qiymatiga yaqin bo'lsa yukni bir joydan boshqa joyga ikki martada siljitish tavsiya qilinadi;

- qiyshiq tortilgan kanalni yoki buriladigan ko'targichli (strelka) yuk ko'tarish mashinalarida yukni siljitish taqiqlanadi;

- kranning yuk ko'tarish xarakteristikasi chegarasida yuk ortilgan strela uzunligini o'zgartirish mumkin ;

- yukni odamlar ustidan olib o'tish taqiqlanadi ;

- kran ishiga aloqasi bo'lmagan odamlarning ish zonasida bo'lishga ruxsat berilmaydi;

- yukni ushlab turuvchi moslamalarni 10 minut davomida ular maksimal yuk ko'tarish qobiliyatidan 1,25 marta ko'p bo'lgan yuklama ostida sinovdan o'tkazish kerak bo'ladi;

- ko'tarish kranlarini ishlatish jarayonida davriy ravishda kuzatib, nazorat jurnaliga qayd qilib borish kerak.

Texnologik jihozlar, quvurlar va metal konstruktsiyalarni montaj va demontaj qilishda quyidagi asosiy talablarga rioya qilish zarur bo'ladi:

- tashqi devorlar va yoping'ichlardagi montaj moslamalari ishlatilguncha va ishlatilgandan keyin yaxlit metall listlar yoki ko'chiriladiga to'siqlar bilan yopiladi;

- jihozlar va metallkonstruktsiyalarni loyiha holatida ko'tarish va o'rnatishda binolarning metall hamda temirbeton konstruktsiyalari mustahkamligi hisoblangan tekshiruv talabini qondirishi, loyiha va qurilish montaj tashkilotlari, ishlab turgan sexlarda esa buyurtmachining ruxsati bo'lishi talab qilinadi;

- 1,3 m balandlikdan oshadigan joyda ish bajarish jarayonida Davlat standartiga muvofiq 5 minut davomida 4000 N statik yuklama ta'siriga har 6 oyda tekshiruvdan o'tkazilgan himoya belbog'i bilan ishchilar ta'minlanishi shart ;

- konstruktsiyalar va jihozlarni harakatlanishida qo'llaniladigan ko'tarish yoki tortish vositalariga ortiqcha yuklama berish qat'iyon taqiqlanadi;

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

-o'rnatilgan jihoz yoki konstruktsiyaning chiqib turgan qismi bilan harakatlanayotgan jihoz yoki konstruktsiya orasidagi masofa gorizontal bo'yicha 1,0 m, vertikal bo'yicha 0,5 metrdan kam bo'lmasligi kerak ;

- ko'targichlarni qo'llab jihozlarni montaj qilish vaqtida ko'targichning qiyshiq bo'lishi yoki sakrash oldini oladigan choralari belgilanadi ;

- osilgan texnologik jihoz, metallokonstruktsiya elementlari va quvurlar ostida ishlash qat'iy qat'iylashtiriladi ;

- binolarda payvandchilarning ish joylari ochiq yoy bilan payvandlash jarayonida ko'z va yuzni nur energiyasi, chaqmoq va sachrashdan asrash maqsadida yo'laklar va boshqa ish joylaridan balandligi kamida 1,8 m bo'lgan o'tga chidamli ekranlar yordamida ajratilgan bo'lishi kerak;

- garelka, kesgich va reduktorning gaz o'tkazish dastaklari hamda dastaklarning kengayish joylari tortiladigan qisqichlar yordamida qotirilishi zarur;

- payvandlash uzatmalarini joylashtirish yoki harakatlantirishda ular himoya qatlamining zararlanishi va ularni suv, moy, po'lat to'qimalari hamda issiq quvurlar bilan kontaktlashuvini oldini olish kerak bo'ladi;

- portlashga xavfli muhit bilan to'ldirilgan qurilmalar va quvurlarda payvandlash ishlarini amalga oshirish qat'iy qat'iylashtiriladi ;

- qurilma va quvurlar ichidagi portlashga xavfli muhitlarni to'liq chiqarib yuborgandan keyin demontaj qilishga ruxsat beriladi ;

- texnologik quvurlarni mustahkamlik va germetiklikka sinash vaqtida bekitgichlarni yaqinida va qarshisida turish, quvur ustida yurish hamda kamchiliklarni bartaraf qilish taqiqlanadi ;

- payvand shakllarini sinov vaqtida taqillatishga ruxsat berilmaydi;

- qo'riqlanadigan zonaga sinov vaqtida odamlarni kirishi taqiqlanadi.

Qurilish maydonchalari va ishlab chiqarish joylarining elektr yoritgichlari tebranish chastotasi 50 Hz bo'lgan o'zgaruvchan tok tarmog'iga va umumiy yoritish tarmog'ining yorituvchi priborlari kuchlanishi 220 V dan oshmaydigan doimiy tok manbaiga ulanadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Montaj maydonidagi elektr jihozlar va elektr tarmoqlarining tuzilishi hamda ularga xizmat ko'rsatish talablari Davlat standartining "Qurilish. Elektrxavfsizligi. Umumiy talablar" bo'limida belgilangan. Elektr tarmoqlari va elektr qurilmalarida montaj hamda ta'mirlash ishlari ularda kuchlanish to'liq yo'qotilganda va xavfsizlik choralarini amalga oshirgandan keyin bajarilishi mumkin.

Jihozlarni o'rnatish , sozlash va ta'mirlashda yong'in xavfsizligi

Montaj, sozlash va ta'mirlash ishlarini bajarishda yong'inni oldini olish maqsadida qurilish montaj ishlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish talab qilinadi.

Ishlab turgan neftni qayta ishlash korxonalarni rekonstruktsiya qilish, kengaytirish va texnik qayta jihozlash vaqtida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishning vaqtinchalik instruktsiyasi tuziladi. Bunda montaj, sozlash va ta'mirlash ishlari olib boriladigan uchastka, sex boshqa ishlab chiqadigan sexlarida yonmaydigan yoki qiyin yonadigan to'siqlar yordamida ajratiladi. Ushbu ob'ektlar uchun yong'in xavfsizligi bo'yicha mas'ul shaxs ishlab chiqarish va qurilish-montaj korxonalari rahbarlarining qo'shma buyrug'i asosida aniqlanadi. Yong'inga qarshi suv ta'minoti, yo'laklar, yo'llar va aloqa vositalari mavjud bo'lmaganda qurilish-montaj ishlarini bajarishga ruxsat berilmaydi.

Ob'yektning yong'inga qarshi holati bo'yicha mansabdor shaxslar yong'in xavfsizligi qoidalarini aniq bilishlari va uni bajarishlari, ushbu qoidalarga rioya qilish ustidan nazorat o'rnatishlari, o'rnatilgan normalar bo'yicha yong'in o'chirish vositalarining ishchi holda va doimo tayyor bo'lishi, qurilayotgan binolarning yong'inga qarshi holatini tekshirishlari, yong'in sodir bo'lganda yong'inni o'chirish qismiga darhol xabar berishlari va zudlik bilan yong'inni o'chirish choralarini ko'rishlari shart.

Qurilayotgan ob'yektdagi barcha ishchi va xizmatchilar 12 soatlik dastur asosida yong'inga qarshi kursdan va instruktajdan o'tkaziladilar. Instruktaj o'tkazish jarayonida yong'in xavfsizligi qoidalari va yong'inga qarshi rejimlar bilan tanishtiriladi. Bunda asosiy e'tibor yong'in sabablari, yong'inni o'chirish vositalarini qo'llash qoidalari va usullariga qaratiladi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Payvandlash va olov ishtirokida bajariladigan barcha ishlar yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi shart. Olov ishtirokida bajariladigan ishlarga qurilish tashkiloti rahbari yoki bosh muhandis ruxsat beradi. Payvandlash va olovli ishlarni bajarish uchun yong'inga qarshi texnik minimumni o'tgan va ushbu ishlarni bajarish uchun maxsus malaka guvohnomasi bo'lgan mutaxassislariga ruxsat beriladi.

Payvandlash va olovli ishlarga yong'in xavfsiligi bo'yicha barcha talablarni (yong'in o'chirish vositalari mavjudligi, ish joyini yonuvchi materiallardan tozalanganligi, yonuvchi konstruktsiyalarni metall ekranlar yoki listlar bilan himoyalanganligi, uchqun uchishi va uning yonuvchi konstruktsiyalarga tushishi oldini oluvchi choralar ko'rilganligi va h.k.) bajargandan keyin ruxsat beriladi. Balandlikda ish bajarayotgan payvandchi o'zi bilan elektrod qoldiqlarini solish uchun metall quti olishi shart.

Shamol kuchi 6 balldan oshganda balandlikda gazelektr payvandlash ishlarini bajarish taqiqlanadi.

Payvandlash ishlarini yonuvchi va qiyin yonuvchi moddalarni qo'llab amalga oshiriladigan ishlar bilan bir vaqtda bajarish taqiqlanadi.

Yong'in xavfi yuqori bo'lgan joylarda hamda katta hajmdagi payvandalash ishlarinng bajarganda yong'inga qarshi portlash tuziladi. Bu postlarning asosiy vazifasi payvandlash ishlari tugagandan keyin ish joylarini e'tibor bilan tekshirish, quyi qavatlar va maydonchalarda yashirin yong'in o'choqlarini aniqlash, yonuvchi konstruktsiyalarga suv sepish, zarur bo'lganda qo'shimcha postlar tashkil qilishdan iboratdir.

Texnologik jarayonni xavfsiz olib borishning asosiy qoidalari

1. Texnologik jarayonni loyihalash, tashkil etish va amalga oshirishda ko'zda tutiladigan xavfsizlik choralari.

Quyidagilar ko'zda tutilishi lozim:

- xavfli va zararli ta'sir ko'rsatadigan boshlang'ich materiallar, tayyor mahsulot va ishlab chiqarish chiqindilari bilan ishchilarning bevosita aloqasini bartaraf etish;

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

- xavfli va zararli ishlab chiqarish faktorlarining kelib chiqishi bilan bog'liq jarayon va operatsiyalarni ko'rsatilgan faktorlar bo'lmagan yoki cheklangan yo'l qo'yilgan kontsentratsiyalar âà sathlardan oshmagan jarayon va operatsiyalarga almashtirish;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud bo'lganida, kompleks mexanizatsiya, avtomatlashtirish, texnologik jarayonlar va operatsiyalarni masofadan boshqarishni qo'llash;

- jihozlarni zich yopish;

- ishchilarni himoyalash vositalarini qo'llashi;

- texnologik jarayonni nazorat qilish va boshqarish tizimi;

- zararli ishlab chiqarish omillarining manbasi bo'lmish chiqindilarni o'z vaqtida yo'qotish, zararsizlantirish va ko'mib qo'yish; aylanma suv ta'minoti tizimidan foydalanish;

- xavfsizlik uchun rangli signal va belgilarni ishlatish;

- hamisha bir xil, gipodinamika, haddan tashqari jismoniy va asab-jismoniy zo'riqlashlarning oldini olish maqsadida oqilona mehnat va dam olish rejimlarini qo'llash;

- tabiiy ko'rinishdagi va ob-havo sharoitlaridan kutilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish.

2. Texnologik jarayonni olib borishda xavfsizlikning umumiy talablari.

1) Qurilmani ishga tushirishdan oldin jihozlar montajining to'g'riligi va shuningdek truboprovodlar, armatura, erlantiruvchi moslamalar, NO'V, kanalizatsiya, yakka tartibdagi himoya va yong'inni o'chirish vositalarining ishga yaroqliligini tekshirish lozim.

2) Qurilmaning ishlash vaqtida NO'V ko'rsatuvlari orqasidan qattiq kuzatish, apparatlarning o'zida o'rnatilgan mahalliy asboblarni bilan taqqoslash lozim.

3) Apparatlardagi harorat va bosimning o'zgarishi, bo'lishi mumkin bo'lgan deformatsiyalarni ogohlantirish uchun, sekinlik bilan va ravon amalga oshirilishi kerak.

4) Qurilmadagi texnologik rejim ustidan qattiq kuzatmoq, parametrlar (bosim, harorat, sarf, sath va boshqalar) o'zgarishining o'rnatilgan me'yorlardan oshishi yoki pasayishiga yo'l qo'ymaslik.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

5) Ishlamaydigan apaparatlar, jihozlar yoki truboprovodlarda surma klapanlarni ochiq qoldirish man etiladi.

6) Sxemadan o'chirilgan apparatlar, jihozlar va truboprovodlar ta'mirdan oldin tozalangan bo'lishi kerak.

7) Truboprovodlardagi surma klapanlar va jo'mraklar tizimli tarzda ta'mirlanishi lozim.

8) Barcha ta'mirlangan apparatlar va qurilmaning alohida tugunlari ishga tushirishdan oldin bosim orkali zich yopilganiga tekshiriladi.

9) Faqat ishga yaroqli jihozda ishlash lozim. Jihoz, kommunikatsiya yoki o'lchov va rostlovchi asboblarning har qanday buzuqliklarida yoki normal ishlashining buzilishida darhol bu buzuqliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.

10) Truboprovodlar va jihozlar izolyatsiyasining neft mahsulotlariga to'yinishiga yo'l qo'ymaslik. Tuyingan izolyatsiyani almashtirish lozim.

11) Amaldagi jihozlarda sal'niklar, flanetsli birikmalarni bosimni atmosfera bosimigacha tushirmasdaí turib zichlashtirish man etiladi.

12) Kanalizatsiyaga to'kiladigan bo'shatish suvlarida neft mahsulotlarining miqdori o'rnatilgan me'yoridan yuqori bo'lmasligi kerak.

13) Nasosli stantsiyalardan foydalanilganda nasoslar va truboprovodlarning zich yopilganligi ustidaí tizimli ravishda nazorat bo'lishi lozim. Neft mahsulotining sirqib to'kilishini payqaganda nasos to'xtatilishi, amaldagi kommunikatsiyalardan o'chirilishi, ta'mirga tayyorlanishi lozim. Nasoslarni ular ishlaganda ta'mirlash man etiladi.

14) Ta'mirdan yoki montajdan qabul qilingan jihozlar qurilma boshlig'i yoki mexanikning ruxsatisiz ishga tushirilmasin.

15) Harakatlanayotgan qismli mexanizmlarga xizmat ko'rsatganda quyidagilar man etiladi:

- a) ish vaqtida to'siq orqasiga kirmoq;
- b) himoyalovchi to'siqlar bo'lmaganida yoki ularning buzuqligida ishlamoq;
- v) harakatlanayotgan qismlarni yo'lda har qanday tuzatmoq yoki ta'mirlamoq;
- g) o'rnatilgan maxsus kiyimsiz ishlamoq.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

16) Yuqori xavfli ishlarni faqat o'rnatilgan shaklda yozma holdagi naryad-ijozatga (ruxsat) muvofiq bajarmoq.

17) O'chirilmagan va tayyorlanmagan jihozlarda ta'mirlash ishlari olib borilmasin.

18) Begona shaxslarni ish joyiga va korxonaning amaldagi ob'ektlariga qo'ymaslik.

19) Lavoziim yo'riqnomasida ko'rsatilgan barcha ishlarni, xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalariga rioya qilgan holda o'z vaqtida va puxta bajarmoq.

20) Qurilma, bino va inshootlar maydoni toza holda saqlanishi kerak. Axlat, ishlab chiqarish chiqindilari, barglar va shu kabilar, tizimli ravishda territoriyadan maxsus ajratilgan joylarga chiqarilishi, nefò mahsulotlarining to'kilishiga yo'l qo'ymaslik, to'kilganida esa bu joy tozalangan va qum bilan sepilgan bo'lishi lozim.

21) Bino va inshootlarga kirish yo'llarda , ostonalarda , zinapoya qafaslari, o'tish joylari, binodan chiqish joylarida yong'in jihozlari, yong'in gidrantlari, yong'in aloqasi va signalizatsiyasi vositalariga kirish yo'llari va ostonalarini tiqilinch qilishga yo'l qo'yilmasin.

22) Ishlab chiqarish binolaridagi pollarni tozalikda saqlamoq. Ishlatilgan artish uchun ishlatiladigai materialni qopqoqli maxsus yashikka yig'moq.

23) Qurilmalar maydonidagi ishlab chiqarish kanalizatsiyasi kuzatish quduqlari qopqoqlarini doimo yopiq holda va 10 cm dan kam bo'lmagan qum qatlami bilan qoplangan va halqalangan holda saqlamoq.

24) Pol, devor, mashinalar va jihozlar detallarini engil alanga oluvchi va yonuvchan suyuqliklar bilan yuvish ta'qiqlanadi. Bu maqsadlarda yong'inga xavfsiz yuvish vositalari qo'llanilishi kerak.

3. Qurilmaga xizmat ko'rsatuvchi personalga asosiy talablar

Qurilmada 18 yoshga kirgan, xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajni o'tgan, aynan ish joyida ishlashning xavfsiz usul va uslublariga o'qitilgan va mustaqil ishlashga ruxsati bor shaxslarning ishlashiga ruxsat beriladi.

Xizmat ko'rsatuvchi personalning vazifalari:

- qurilmaning texnologik chizmasini, yordamchi tarmoqlar, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatizatsiya vositalari chizmalarini mukammal bilmoq;

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

- tizimli ravishda jarayon parametrlarini nazorat qilmoq va o'z vaqtida operatorlar xonasidagi qalqonda va o'rnatilgan joyidagi asboblarning ko'rsatuvlarini taqqoslash;
- ishlab chiqarish texnologik xaritasida ko'rsatilgan texnologik rejim me'yorlariga qattiq rioya qilish va o'z vaqtida parametrlarning chetga chiqishini bartaraf etish choralari ko'rishi lozim;
- tizimli ravishda ishlab chiqariladigan mahsulot sifati nazoratini namuna tanlash yo'li bilan amalga oshirmoq va tahlillar natijasiga ko'ra, brakni ishlab chiqarishga yo'l qo'ymasdan, texnologik rejimni to'g'rilamoq;
- o'z vaqtida flanetsli birikmalar va sal'nikli zichlagichlarning tirqishlari orqali oqib chiqishlarni topmoq va bartaraf etmoq;
- yong'inni o'chirish, mustaqil himoya vositalari va maxsus kiyimlarni ishga yaroqli holda saqlamoq;
- propanning zaharlovchi va zararli xususiyatlarini, uning portlash chegarasini, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan gudron, deasfal'tizat, asfal'tlarning xususiyatlarini bilmoq;
- ish joyida tozalik va tartibni tutib turmoq;
- lavozim va xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalarining talablarini bajarmoq.

Jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan xavfsizlik choralari.

1. Vodorodning havo bilan portlashga xavfli aralashmasining hosil bo'lishidan saqlanish uchun, tizimga tarkibida vodorod bo'lgan gazni uzatishdan oldin uni inertli gaz bilan puflab tozalash lozim.
2. Tarkibida vodorod bo'lgan gazning sirqib chiqib ketishiga yo'l qo'yilmasin. Apparatlar va truboprovodlarda zichlashtirilmagan joylarning borligida qurilmani avariya o'ldirish uchun zarur (tseñ rahbariyati bilan kelishilgan holda).
3. Adsorbentlarni SNG adsorberiga yuklagandan so'ng, hamda GFQ (gazni fraktsiyalash qurilmasi) tizimidagi istalgan apparatlarni ta'mirlagandan keyin, tizim, apparatlar, truboprovodlarning germetikligini inertli gaz bosimi ostida tekshirish lozim.

Bajardi	Karimova D.			<i>Hisob tushuntiruv yozuvi</i>	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

4. GFQ apparaturasi va truboprovodlarini ochish faqatgina inertli gaz bilan tozalash va bug'latish orqali tarkibida vodorod bo'lgan gazni butunlay ketkizgandan keyingina ruxsat etiladi.

5. Rezervdagi nasoslarni ishga tushirishdan oldin, ularga qaynoq neft mahsulotini doimiy kiritish yo'li bilan dastlab isitish zarur. Dastlab isitmasdan turib, nasoslarni ishga solish ta'qiqlanadi.

6. Barcha texnologik parametrlar nazoratining blokirovkali va signalli moslamalari doimo ishga yaroqli holatda bo'lishi kerak.

7. Gazli nasoslarning barcha birikmalari va ularning gaz quvurlari vaqt-vaqti bilan germetiklikka sovuqli eritma bilan tekshirilishi lozim.

8. Gazning sirqib chiqib ketishi sezilganida nasos to'xtatilishi va defekt bartaraf etilishi lozim.

9. Sektsiyalardagi ulovchi naychalarning zichlashtirilgan joylaridan gazning sirqib chiqishida, ventilyatorning to'suvchi qismlarining nosozligida, ventilyatorning vibratsiyasida, havoli sovitish apparatlaridan foydalanish ta'qiqlanadi.

10. Qurilma maydonida ochiq o'tning (gulxanlar, mash'allar va boshqa isitish va yoritish manbalari) qo'llanilishi ta'qiqlanadi. Muzlagan truboprovodlar va boshqa jihozlarni isitish uchun o'tkiç suv bug'i qo'llanadi. Yoritish uchun portlashdan himoyalangan ko'rinishdagi statsionar yoritgichlaç yoki shu ko'rinishdagi ko'chma akkumulyatorli fonarlar qo'llanadi.

11. Qishki sharoitda yonuvchi gazli va suyuqlikli truboprovodlarning barcha joylari va ayniqsa ularning boshi berk, suv muzlab qolishi ehtimoli bo'lgan joylari isitilgan va ishonarli isituv bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

12. Muzlagan drenaj jo'mrakli apparatlar va truboprovodlarni ishga solish man etiladi.

13. Qishki vaqtda o't o'chirgichlarni isitiladigan xonalarda, biroq isituvchi asboblarga yaqin bo'lmagan joylarda saqlansin. Ko'pik hosil qiluvchi harorati +50S dan past bo'lmagan xonada saqlansin.

14. Apparatura, truboprovodlar va armaturalarning muzlagan qismlarini ochiq o't yordamida isitish ta'qiqlanadi. Isitish faqat bug' yoki qaynoq suv bilan olib borilishi

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

lozim. Muzlatilgan armaturani ochish uchun uning vayron bo'lishining oldini olish maqsadida uzaytirgichlar (ilgak) larni qo'llash ta'qiqlanadi.

Xodimlarning individual himoya vositalari

a) nafas olish a'zolari himoyasi vositalari uglevodorodlardan filtrlovchi A" va "BKF" rusumli protivogazlar, "PSh-1" va "PSh-2" rusumli shlangli protivogazlar, changdan saqllovchi respiratorlar.

b) maxsus kiyim: paxtaqog'ozli bir yoqlama tugmali kostyui;

v) maxsus oyoq kiyimi: rezina poshnali charm botinkalar;

g) qo'lni himoyalovchi vositalar: paxtaqog'ozli qo'lqoplar, kislota va ishqorlardan rezinali qo'lqoplar;

d) boshni himoyalovchi vositalar: himoyalovchi kaskalar podshlemniklari áèèàí;

e) ko'zni himoyalovchi vositalar: himoyalovchi ko'zoynaklar

j) saqllovchi moslamalar: saqllovchi belbog'lar;

z) eshitish a'zolarini himoyalovchi vositalar: shovqinga qarshi quloqchinlar (kompressorlar mashinistlari uchun).

Statik elektrdan himoyalanish

Statik elektr zaryadlarining kelib chiqishi moddalarning deformatsiyasi, parchalanishi (sachratilishè) oqibatida, ikki muloqotda bo'lgan tanalar, suyuq yoki to'kiluvchan materiallarning aralashishi, moddalarning zo'r berib aralashuvi, kristallanishi, bug'lanishi oqibatida sodir bo'ladi.

Texnologik jihozlarda zaryadlarning paydo bo'lishi jadalligi qayta ishlanadigan moddalar, aniqlanadigan muhit va jihozlar yasalgan materiallarning fizikaviy-kimyoviy xossalari bilan aniqlanadi.

Solishtirma hajmiy elektr qarshiligi $105 \text{ } \Omega \cdot \text{m}$ dan yuqori bo'lgan moddalar va meteriallãð qayta ishlangan va tashilgan vaqtida statik elektr zaryadlarini to'plashga qodir.

Statik elektr zaryadlaridan himoyalanish uchun erlantirish konturi bilan bog'langan, "Kimyo, neft kimyosi va neftni qayta ishlash sanoati ishlab chiqarishining statik

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

elektrdan himoyalash qoidalari" gà muvofiq bajarilgan, barcha texnologik apparatlarni erlantirish ko'zda tutilgan.

Yong'inni o'chirish usullari va zarur vositalari

a) neft mahsulotlar o't olishining katta bo'lmagan o'choqlarini OP-5 va OXP-10 ko'pikli o't o'chirgichlari, qum, koshma. bug' bilan o'chirish mumkin;

b) neft mahsulotlar o't olishining katta o'choqlarini suvning tizillab oqayotgan kompakt oqimlari bilan maxsus o't o'chiruv yoki lafetli tanalari yordamida bosim ostida, suv bug'i bilan va o't o'chiruv mashinalari bilan uzatiladigan o't o'chiruv ko'piki bilan o'chirish mumkin;

v) pechlar ichidagi yong'inlarni o'chirish uchun statsionar o'rnatilgan truboprovod bo'yicha yonish kamerasiga uzatiladigan o'tkir bug' qo'llanadi;

g) elektr dvigatellari o't olganida elektr simlari OU-2 va OU-5 rusumli karbonat kislotali o't o'chirgichlari bilan o'chirilsin;

e) o't o'chiruvchilar komandasi telefon yoki yong'in bildirgichi (izveshatel') orqali chaqirilsin.

Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siridan ishchi-xodimlarni himoyalash jamoà vositalari

a) havo muhitini normallashtirish uchun qurilma yopiq binosiz, tabiiy ventilyatsiyali montaj qilingan. Qurilmaning havo muhiti HGQO laborantlari tomonidan tizimli ravishda nazorat qilinadi;

b) yoritishni normallashtirish maqsadida kechki vaqtda portlashga xavfsiz yoritgichlar qo'llanadi;

v) elektr toki va statik elektrdan himoyalash uchun barcha apparatlar, jihozlar, truboprovodlar va izolyatsiya himoya qobig'ining erlantirish moslamalari qo'llanilgan.

Yong'in texnikasi va signalizatsiyasini avtomatik ravishda yoqish vositalari.

O't olish hodisasida o't o'chirish komandasini operativ suratda chaqirish uchun qurilmaning alohida ob'ektlarida va ustunlar yonida PKIL tipidagi bildirgich (izveshatel') ning o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

XULOSA.

“Nordon gazlarni olish texnologik tizimini avtomatlashtirish va boshqarish” mavzusida bitiruv malakaviy ishi bajarildi. Bu bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida siqilgan gazni quritish jarayonini avtomatlashtirishning maqsadi, mohiyati va dolzarbligi belgilab olindi. Texnologik jarayon boshqarish ob’yekti sifatida to’liq tahlil qilindi va ushbu jarayonni avtomatlashtirishning hozirgi holati, avtomatlashtirish darajasi aniqlandi. Texnologik tizimning sxemasi o’rganildi. Parametrlarni o’lchash uchun datchiklar va avtomatlashtirish vositalari tanlandi. Mavjud avtomatlashtirish sxemasida ikkilamchi asboblardan va rostlagichlardan o’rniga mikroprotsessorli mikrokontrollerlar tanlandi. Tanlangan mikrokontrollarning to’liq texnik xarakteristikalarini keltirildi. Avtomatlashtirish vositalarining dinamik xarakteristikalarini tuzishda rostlash ob’jektining parametrik sxemasi va o’tish xarakteristikalarini keltirilgan, rostlash qonuni va rostlagich tanlandi. Rostlagichni sozlash parametrlari hisoblandi va uzatish funksiyasi tuzildi. “Matlab” amaliy dasturida ARS ning struktura sxemasi, chastota xarakteristikasi aniqlandi.

Boshqarish shitining old va orqa tomonidan ko’rinishi va avtomatlashtirish vositalarini joylashtirish usullari bayon etildi. Shitda joylashtirilgan avtomatlashtirish vositalarining texnik xarakteristikalarini va ulash usullari ko’rsatildi.

Prinsipial elektr ta’minot sxemasining tavsifida ta’minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlarda elektr elementlarining vazifasi keltirildi.

Mikrokontrollerlar joriy qilingandan keyingi iqtisodiy samaradorlik aniqlandi. Jarayon avtomatlashtirish amalga oshiriladigan sexda hayot faoliyati xavfsizligi masalalari yoritildi.

Shunday qilib siqilgan gazlarni mana shu bitiruv malakaviy ishida ko’rsatilgan usul va vositalarni ishlab chiqarishga joriy qilsak, korxona uchun avvalambor iqtisodiy jihatdan foyda keltirsa, boshqa tomondan jarayonning xavfsiz sharoitlarda olib borilishi ta’minlanadi.

Bajardi	Karimova D.			Hisob tushuntiruv yozuvi	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O’zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yusufbekov N.R., Muhammedov B.E., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. Toshkent. "O'qituvchi", 1997.-704 b.
2. Datchiki davleniya i rasxoda. «Siemens». Katalog 2014.
3. Datchiki temperaturi«Siemens». Katalog 2014.
4. Jurnal «STA», №3, 2012 g.
5. Yusufbekov N.R. va boshqalar. Avtomatika va ishlab chiqarish protsesslarining avtomatlashtirilishi. Toshkent. "O'qituvchi", 1982. – 351
6. Proektirovanie sistem avtomatizatsii texnologicheskix protsessov: Spravochnoe posobie / A.S. Klyuev, B.V. Glazov, A.X. Dubrovskiy, A.A. Klyuev; Pod red. A.S. Klyueva. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Energoatomizdat, 1990. – 464 s.: il.
7. Kontrolleri SIMATIC S7-300. Katalog 2010.
8. Programmirovaniye STEP7Lite. 2013.
9. Rasxodomeri firmi «Yokogawa». Katalog 2014.
10. Usmonov A.U., Shomurodova D.M. "Avtomatika asoslari" fanidan ma'ruzalar matni. Buxoro. "Muallif", 1999. – 70 b.
11. Fedotov A.V. Avtomatizatsiya upravleniya v proizvodstvennix sistemax: Uchebnoe posobie. – Omsk: OmGTU, 2001. – 368 s.
12. «Samson»: Reguliruyemye klapani dlya texnologicheskix protsessov. Klapani serii 230, 240. Tom 1, 2004.
13. «Samson»: Reguliruyemye klapani dlya texnologicheskix protsessov. Pribori i prinadlejnosti dlya reguliruyemyx klapanov. Tom 3, 2004.
14. Resheniya: neft i gaz. SIMATIC TIA, 2004.
15. Il'elkunov V.A., Skoblo A.I., Vladimirov A.I. Protssesi i apparati neftegazopererabotki i nefteximii.-S.P.:Nedra, 2004
16. GOST 21.404-85. Avtomatizatsiya texnologicheskix protsessov. Oboznacheniya uslovnix priborov i sredstv avtomatizatsii v sxemax.
17. GOST 15.001-88. Sostavlenie texnicheskogo zadaniya.

Bajardi	Karimova D.			<i>Hisob tushuntiruv yozuvi</i>	Var
Raxbar	Xabibov F.Yu.				
O'zg.	Var	Hujjat №.	Imzo	Sana	